

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM
VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI**

**TARJIMADA MUQOBILSIZ BIRLIKLAR TARJIMASIGA DOIR
(5220600-tarjima nazariyasi va amaliyoti)**

Tarjima nazariyasi va amaliyoti fakulteti

Talabasi Raufov Mirazizning

B I T I R U V M A L A K A V I Y I S H I

ILMIY RAHBAR: O‘QIT. A.I. SAYFULLAYEV

BITIRUV MALAKAVIY ISH

Tarjima nazariyasi va amaliyoti

kafedrasida himoyaga tavsiya etildi

Bayonnoma № « » may 2015-yil

Kafedra mudiri:

Turdiyeva N. Yo.

Samarqand - 2015

MUNDARIJA

KIRISH	3
I BOB. O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA MUQOBILSIZ BIRLIKLAR VA ULARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	
1.1. O‘zbek tilida atamalarning paydo bo‘lish manbalari.....	7
1. 2. Atamalarning fan, texnika, san‘at va ijtimoiy hayotdagi o‘rni	10
1. 3. Ingliz terminologiyasining o‘ziga xos xususiyatlari	16
1. 4. O‘zbek tilida ingliz tili leksikasiga xos birliklarning qo‘llanilishi	22
I bob bo‘yicha xulosa	25
II BOB. REALIYA, MILLIYLIKKA XOS SO‘ZLAR TUSHUNCHASI	
2.1. RealIya tushunchasi va uning tasniflanishi	26
2.2. Ingliz va O‘zbek tillarida realiyalar	32
II bob bo‘yicha xulosa.....	37
III BOB. MUQOBILSIZ BIRLIKLAR TARJIMASIGA DOIR	
3.1. Atamalar, neologizmlar, atoqli otlar va geografik joy nomlarini tarjima qilishning o‘ziga xos xususiyatlari.....	39
3.2. Muqobilsiz leksik birliklar o‘zbek tiliga tarjima qilish usullari	42
3.3. Gazeta va ilmiy-texnikaviy matnlarda muqobilsiz birliklar tarjimasi	45
III bob bo‘yicha xulosa	49
XULOSA	51
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI	59
ILOVA	

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov taraqqiyotimizning asosiy yo'nalishlarini belgilab olishda ta'limning naqadar muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatar ekan, quyidagilarni alohida ta'kidlab o'tgan edilar:

«Milliy tiklanish yo'li yuqori savodxonlik, yuksak madaniyat orqali o'tadi. Shuning uchun ham ma'lumot darajasi va professional tayyorgarlik darajasi XXI asr arafasida bizning ijtimoiy rivojlanishimizning o'lchovi bo'lib qolmog'i kerak. Bu – islohotlarning belgilangan yo'ldan borishining va muvaffaqiyatli amalga oshirishning eng yaxshi kafolatidir. Bu – sarflangan mablag'lardan vaqti kelib eng ko'p foyda olinadigan yo'nalishdir» [1, B.234].

Hukumatimiz tomonidan qabul qilingan Kadrlar tayyorlashning Milliy Dasturini ana shu fikrning amaliy tadbiri asosida ko'rish mumkin. Zero, davlatimiz rahbari ko'rsatib o'tganlaridek, «Biz yigit va qizlarimizning ma'lumotli kishi uchun zarur bo'ladigan barcha bilimlarni egallay olishlariga, yangi sharoitlarga tez va mashaqqatlarsiz moslashishlariga imkon berishimiz kerak. Yangilangan o'z davlatlarini ko'rish, isloh qilish jarayonining faol qatnashchilari bo'lishlariga imkon beradigan, madaniy, axloqiy va ma'naviy qadriyatlarni egallab olishlari uchun yordam beradigan sharoit yaratishimiz darkor» [2, B. 91].

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishda xorijiy tillarni o'rganish alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki xalqaro maydonda o'z o'rniga ega bo'lishga intilayotgan davlatlar kadrlari uchun xorijiy tillarni mukammal bilish suv va havodek zarurligi hech kimga sir emas. O'zining kelajagini xorijiy hamkorlar bilan birlik va hamjihatlikda qurayotgan O'zbekiston xalqi uchun xorijiy tillarni o'rganishning ahamiyatini ortiqcha ta'kidlab o'tish shart emas.

Bu masalaning kompleks tarzda hal qilinishi esa ko'p jihatdan filologiya va pedagogika fanlari sohasidagi ilmiy- tadqiqot ishlarini jadallashtirishga bog'liqdir.

Mening bitiruv malakaviy ishimning mavzusi “Muqobilsiz birliklar tarjimasiga doir” bo'lib, ushbu ish ingliz va o'zbek tillaridagi atamalar,

neologizmlar, atoqli otlar va geografik joy nomlarini o'zbek tiliga tarjima qilish usullariga bag'ishlangan.

Mavzuning dolzarbligi. Zamon shiddat bilan o'zgarmoqda har bir sohada katta o'zgarishlar-u yangi-yangi islohatlar ulkan o'zgarishlar davri desak hech mubolag'a qilmagan bo'lamiz. Mustaqil Respublikamizda hozirgi kunda tarjimonlik sohasiga, ayniqsa katta e'tibor berilayotgani ham fikrimizning yorqin misoli bo'la oladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2012-yil 10-dekabrda PQ-1875-sonli qarori chet tilini yanada mukammal o'rganish, tilning fonetika, leksika, grammatikasi haqida bilimlar va nutq faoliyati turlari: tinglash, gapirish, o'qish va yozish bo'yicha ko'nikmalarni nazarda tutadi. Chet tilida nutqiy faoliyat yuritish kishi shaxsini shakllantirishga yo'naltiriladi, ya'ni o'rganilayotgan til sohibi yaratgan madaniy merosni o'zlashtirishga erishiladi. Tinglab tushunish, gapirish, o'qish, yozish jarayonida o'quvchi oldin egallagan tajribasini boyitadi, muloqotdoshlarning bir-birini tushunishlari chet tilini bilishning asosiy mezonidir. Chet tilidagi matnni ona tiliga asl holda ko'chirish, ya'ni tarjima qilish tarjimon oldida turgan muhim masalalardan biridir. Mavzuning dolzarbliligini quyidagilarda ko'rishimiz mumkin:

1. Muayyan bir tildagi muqobilsiz birliklar bilan yaqindan tanishish;
2. O'zbek va ingliz tillaridagi muqobilsiz birliklarni o'rganish;
3. Ingliz va o'zbek tillaridagi muqobili yo'q birliklarni tarjima qilishda muqobil variantlarini qo'llay olish haqidagi nazariyani o'rganib chiqish;
4. O'rganilgan nazariya orqali amaliyotda muqobilsiz birliklarni tarjima qilish;

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Tarjima muammolari o'zbek tarjimashunoslari J. Sharipov, G. Salomov, K. Karomatova, K. Tojiyev, I. G'afurov va boshqa tarjimashunos olimlarning ilmiy izlanishlarida keng yoritilgan. Keying davrlarda tarjima usuli va uslublarning nazariy tomonlari, tarjimon mahorati haqida Q. Musayev, D. G'ulomova, Sh. Sirojiddinov, G. Odilova kabi olimlarning tadqiqotlari yuzaga keldi.

Lekin shuni alohida ta’kidlash joizki, yuqorida keltirilgan tadqiqotlarda tarjimada muqobilsiz birliklarni qayta yaratish muammosi ishning muayyan predmeti sifatida tadqiq qilinmagan. Tarjimada muqobilsiz birliklar lingvistik interpretatsiyasi zamonaviy tarjimashunoslik tomonidan o’rganilmagan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Ushbu mavzu yuzasidan juda ko’p fikr va mulohazalar berilgan. Lekin ushbu tadqiqot ishida ko’proq ilmiy matnlarda uchraydigan muqobilsiz birliklar tarjimasi muammolari ko’rib chiqilgan.

Ishning maqsad va vazifalari. Ushbu bitiruv malakaviy ishning maqsadi quyidagi masalalarni yoritib berish:

- terminlarning paydo bo’lishi, o’rnini aniqlash va ingliz tilida terminlar klassifikatsiyalash;
- “muqobilsiz birliklar” tushunchasi haqida ma’lumot berish;
- muqobilsiz birliklarning tarjimonga qanday qiyinchililarni olib kelishi va ularni qanday bartaraf etish yo’llari haqida nazariy va amaliy bilim berish;
- tildagi muqobilsiz leksik birliklarning vazifalarini ko’rsatib berish;
- muqobilsiz birliklarni tahlil qilgan holda o’xshash va farqli vazifalarini yechish;
- ularni o’zbek tiliga tarjima qilish usullariga mo’ljallangan.

Ishning metodologiyasi. Ushbu bitiruv malakaviy ish ustidagi izlanish jarayonida asosan qiyosiy solishtirma metodlardan foydalanildi. Bundan tashqari ishni olib borish mobaynida distributsion metod turlari (qo’shimcha distributsiya, kontrast distributsiya, erkin almashinish distributsiyasi), transformatsion metodlar, komponent tahlil metodi, modellash metodidan foydalanildi.

Ishning asosiy materiali. Malakaviy ishda olib borilgan izlanishning asosiy materiali sifatida bevosita qilinilgan tarjimalar, ilmiy matnlar, gazeta va jurnallar tarjimalari olindi.

Ishning amaliy ahamiyati shundaki, ushbu ilmiy ishning natijalaridan “Yozma tarjima” fanida muqobilsiz leksik birliklar ya’ni atamalar, neologizmlar, atoqli ot va geografik joy nomlarining tarjimasi bo’yicha maxsus kursida,

shuningdek tarjima nazariyasi va amaliy tarjimaga oid kursida foydalanish mumkin.

Ishning nazariy ahamiyati shundaki, muqobilsiz birliklar, ya'ni atamalar neologizmlar, realiyalar, atoqli otlarning tarjima qilish usullari haqidagi nazariyalarni ishlab chiqish va ushbu nazariya orqali amaliyotga joriy etish.

Ishning tuzilishi. Ushbu bitiruv malakaviy ish kirish, uchta bob, har bir bob bo'yicha xulosa, umumiy xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati qismlaridan tashkil topgan.

Ilmiy ishning tarkibi. Kirishda mavzuning tanlanishi, uning dolzarbligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, maqsad va vazifalari, ushbu mavzuda qilingan ishning qisqacha sharhi haqida qisqacha ma'lumot berib o'tilgan.

Birinchi bobda o'zbek tilida terminlarning hosil bo'lish manbalari, terminlarning fan, texnika, san'at va ijtimoiy hayotdagi o'rni, ingliz terminologiyasining o'ziga xos xususiyatlari va o'zbek tilida ingliz tili leksikasiga xos birliklarning qo'llanilishi berilgan. Ikkinchi bobda muqobilsiz leksik birliklar tarjimasiga doir atamalar, neologizmlar, atoqli otlar va geografik joy nomlarini tarjima qilishning o'ziga xos xususiyatlari va muqobilsiz leksik birliklar o'zbek tiliga tarjima qilish usullari, hamda gazeta va ilmiy-texnikaviy matnlarda atamalar tarjimasi berilgan.

I BOB. O‘ZBEK VA INGLIZ MUQOBILSIZ BIRLIKLAR VA ULARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

1.1. O‘zbek tilida atamalarning hosil bo‘lish manbalari

Terminologiya umumadabiy til leksikasining o‘ziga xos qatlamini tashkil etadi. Terminlar odatdagi so‘zlardan, boshqa tillardan olingan so‘zlardan yaratiladi yoki har bir tilning o‘zida azaldan mavjud bo‘lgan morfemalardan yasaladi. Qisqacha aytganda, terminologiya ona tilidagi mavjud materiallardan yoki tayyor holdagi terminlarni boshqa tillardan qabul qilish orqali, ya’ni ham “ichki”, ham “tashqi” imkoniyatlar hisobiga boyiydi.

Quyida mana shu har ikkala asosiy manbaga to‘xtalib o‘tamiz.

Ona tilida mavjud bo‘lgan so‘z yoki qo‘shimchalardan termin yasashda ikki yo‘l borligi ma’lum:

1. Odatdagi so‘zlarni termin sifatida qo‘llash yo‘li bilan termin yaratish;
2. Ona tilidagi so‘z va morfemalar yordamida termin yasash. [34, B. 22]

1. Oddiy muomalada odatda qo‘llaniladigan so‘zlar fan yoki texnika sohasida ma’lum bir narsaning (tushunchaning) nomi sifatida terminga xos xususiyat kasb etishi mumkin. Odatdagi so‘z termin deb qabul qilinar ekan, o‘sha so‘z ifodalaydigan so‘z tushuncha ifodalaydigan belgilaridan yoki ma’nolaridan birortasi termin anglatishi lozim bo‘lgan predmet (yoki tushunchaning) biron muhim belgisini bildiradi, qolgan belgilar yoki ma’nolar hisobga olinmaydi. Masalan, o‘zbek tilida *gul*, *poya*, *ildiz* (botanika), ingliz tilida *subjekt*, *objekt* (grammatika) so‘zlari kundalik turmushga xos bo‘lgan so‘zlardir.

Bu kabi so‘zlarning termin bo‘lishlari uchun ular maxsus adabiyotlarda olimlar tomonidan ta’riflanadi, qanday mantiqiy mazmun berilganligi chegaralab ko‘rsatiladi. Bu kabi ishni terminologiyani tartibga soluvchi ilmiy tashkilotlar, komissiyalar ham bajaradi.

2. Fan va texnika sohalarida yangi tushuncha yoki predmet paydo bo‘lganida, ba’zan uni ona tilida mavjud bo‘lgan til materiali (so‘z va morfemalar) vositasi bilan yangi termin yasab ifodalash qulayroq bo‘ladi.

Ona tili imkoniyatlaridan foydalanib yangi soʻz yasashda soʻzlarni (soʻz shakllarini) biriktirish yoki soʻz yasovchi affikslar yordamida yasama soʻz hosil qilish usullaridan keng foydalaniladi. Masalan: *hisoblash* (matematika), *uzoqlik* (fizika), *birlik* (tilshunoslik, matematika), *oʻlchagich* (fizika, ximiya).

Bunday soʻzlarni yaratishda maʼlum bir maqsad, belgi va xususiyatni ifodalash aniq koʻzda tutilgani uchun ularning maʼnolari morfemalari tashiydigan maʼnolari yigʻindisidan iborat boʻladi.

Soʻz va grammatik shakllarni biriktirish yoʻli bilan yasalgan terminlarning ilk maʼnosi ayniqsa anglashilib turadi: *yuqori had*, *kasrning maxraji*, *tortilib turuvchi yoy* kabi.[11, B. 48]

Terminologiyani yaratishdagi ikkinchi manba boshqa tillardagi, xususan, bevosita tarixiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqada boʻlgan xalqlarning tillaridagi soʻz va terminlardir.

Boshqa tillardan olingan terminlar yoki boshqa tillardagi soʻzlardan tugʻilgan terminlar, koʻpincha atoqli otlar singari bir maʼnoli boʻlib, odatdagi soʻzlardan ajralib turadi. Masalan: *telefon*, *sarlavha*, *vergul* kabi.

Boshqa tildan soʻz va termin olishning sabablari quyidagilardan iborat:

1. Turmushga kirib kelayotgan yangi predmet yoki tushunchani ifodalaydigan soʻz ona tilida mavjud boʻlmaydi. Masalan: *otvertka*, *rul*, *kapot* (avtomashina).

2. Ona tilidagi vositalar bilan tarjima qilish terminning maʼnosini toʻla va toʻgʻri ifodalash imkonini bermasligi mumkin. Masalan, *temperament* (psixologiya, fiziologiya sohasida) soʻzi oʻrnida *mijoz* soʻzini qoʻllab boʻlmaydi. Chunki *mijoz* soʻzi *temperament* maʼnosinigina emas, balki xarakter maʼnolarini ham bildiradi. Hatto keyingi maʼnolar *temperament* maʼnosiga nisbatan ustun turadi.

Hozirgi oʻzbek terminologiyasini yaratishda boshqa tillardan olib foydalaniladigan leksik material etimologik jihatdan ikki guruhga boʻlinadi:

Arab va fors-tojik soʻzlari. Bu tillardan mansub soʻzlar yordamida koʻproq davlatni boshqarish, taʼlim-tarbiya va fan, madaniy qurilish sohalariga oid

hisoblanadi: *davlat, moliya, mudofaa, san'at, sanoat* kabi so'zlar arab tilidan, *poydevor, ohang, dastgoh* kabilari esa fors-tojik tilidan o'zlashgan so'zlardir.

Rus tilidan o'zlashgan so'zlar. Rus tilidan o'zlashtirilgan terminlarning ba'zilari etimologik jihatdan rus tiliga xos bo'lsa ham, ba'zilari rus tiliga boshqa tillardan kirgan xalqaro so'zlardir.

Rus tilining o'ziga xos bo'lgan terminlar o'z leksik xususiyatlariga ko'ra, shuningdek, grammatik shakl va ma'nolarning aniq ko'rinib, anglashilib turishi jihatidan bir-biridan farq qiladi: bir xillari rus tiliga xos bo'lgan milliy leksik-grammatik shaklni ko'rsatib turmaydigan neytral xususiyatli bo'lsa, boshqa xillarining o'zbek tilida ekvivalentlari mavjud bo'lib, rus tiliga xos bo'lgan biron grammatik shaklda bo'ladi va ma'lum grammatik ma'nolarni anglatib turadi.

Masalan, *parovoz, samolyot* kabi terminlar grammatik jihatdan o'zbek tilidagi otlardan ajralmaydi, ularda rus tiliga xos grammatik xususiyatlar ko'rinib turmaydi. Shuning uchun bunday terminlarning o'zbek tiliga qabul qilinishi va o'zlashib ketishi oson.

Ammo o'zbek tiliga tarjima qilinishi mumkinligi yoki rus tiliga xos grammatik xususiyatlar ko'rinib turganda, terminni yoki umuman qabul qilish mumkin bo'lmaydi, yoki bunda ayrim qiyinchiliklar tug'iladi. Masalan, *zritel'naya os* terminining har bir elementi osonlik bilan tarjima qilinadi: *ko'rish o'qi* (anatomiya). Shuning uchun bunday termin leksik jihatdan emas, ma'no jihatdangina qabul qilinadi.

Ingliz tilidan o'zlashgan so'zlar. Ma'lumki, ingliz tili hozirgi davrda butun jahon tili sifatida tan olinib, undan juda ko'p tillarga yangi so'zlar kirib kelmoqda. Bundan o'zbek tili ham mustasno emas. Ingliz tilining o'zbek tiliga ta'sirini asosan biz ijtimoiy hayotda, san'atda kuzatishimiz mumkin: *shou biznes, mobil aloqa, byudjet, marketing* kabi.

Biz yuqorida asosan o'zbek tilining ichki imkoniyatlari va chet tilidan o'zlashgan so'zlar hisobiga yaratilgan terminlarni ko'rib o'tdik. Ammo tilimizda (shuningdek, ingliz tilida ham) shunday terminlar borki, ular

xalqaro terminlar(yoki baynalmilal so'zlar) nomi bilan ataladi.

Bu terminlar antik davrga oid bo'lgan grek va lotin so'zlari ilmiy-texnikaviy termin sifatida keng qo'llanilayotganligi hammaga ma'lum. Bu holning bir necha muhim sababi bor:

1. Antik davrda ko'pgina ilmiy terminlar yaratilgan edi. Bu terminlardan hozir foydalanish qulay. Masalan, qadimgi Yunonistonda yaratilgan *omonim* (*homonym*), *sinonim* (*synonym*), *metonomiya* (*methonymy*) kabi tayyor terminlar turganida uni o'zbek tilidagi shakldosh so'zlar, *istiora*, *qayta ko'chirmoq* kabi termin va iboralardan foydalanish noqulay ekanligi aniq ko'rinib turibdi.

2. Antik davr so'zlarning asosiy ma'nolari hozirgi paytda boshqa millat vaqillariga ma'qul bo'lmagani uchun, ularni ko'chma ma'noda qo'llay berish mumkin. Bu ko'chma ma'no asosiy ma'no sifatida anglashilib, ularning boshqa ma'nolari hisobga olinmaydi, balki bir ma'noli deb tushunilaveradi. Masalan, lotincha *funksiya* so'zi bajarish, vazifa ma'nolarini, *vergul* so'zi *shoxcha*, *kichkina chiziq*, *belgi* ma'nolarini anglatadi. Ammo tilshunoslikda bu terminlar faqat vazifa hamda vergul ma'nosida qo'llaniladi, ularning boshqa ma'nolari mutlaqo anglashilmaydi.

3. Grek va lotin so'zlarining grammatik shakllari hamda grammatik bilinib, anglashilib turmaydi. Shuning uchun bunday so'zlarni har bir milliy tilning grammatik qoidalari asosida qo'llash qulay.

4. Grek va lotin morfemalaridan (o'zak va affikslaridan) ko'p miqdorda sun'iy terminlar yasash mumkin.

Yuqorida aytilganicha, grammatik jihatdan neytrallik ana shunday imkoniyatlarni beradi. Masalan, *fonografiya*, *polietilen*, *aerodinamika* kabi.

Xalqaro terminlarning hammasi ham antik tillar materiali negizida yaratilgan emas, albatta. Ularning birmunchasi rus tili orqali nemis, fransuz, ingliz, italyan va boshqa tillardan kirgan.

1.2. Atamalarning fan, texnika, san'at va ijtimoiy hayotdagi o'rni

V. P. Danilenko terminologiyani umumadabiy tilning kichik sistemasi sifatida baholab, shunday deb yozadi: «Terminologiya umumadabiy til doirasida muayyan nomustaqil «sektor» xususida mavjud bo'ladi. Terminologiyaning mana

shu tarzdagi «ma'muriy-huquqiy mavqeyi, bir tomondan, uning uchun umumadabiy til rivojlanishidagi umumiy an'analari majburiyligini, ikkinchi tomondan, terminologiyaning rivojlanishidagi ma'lum erkinlik, mustaqillik va hatto uning umumadabiy til rivojiga ta'sir qilishi mumkinligini taqozo etadi. Ana shu mulohaza o'zbek tili terminologiyasiga ham to'la taalluqli, deb hisoblaymiz.

Bu o'rinda shuni qayd etish lozimki, umumadabiy tildagi leksemalar hosil qiluvchi ayrim so'z yasovchi elementlarning ishtiroki nisbatan nafaoldir. Biroq ayni shu elementlar terminologik tizimlarda nihoyatda faolligi bilan ajralib turadi. Xozirgi bosqichda qator terminologik omillarning adabiy til doirasiga chiqib borayotganligi yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Terminlarning badiiy, publitsistik ijtimoiy-siyosiy, ommabop adabiyotlarda, gazeta va jurnallarda, teleradio nutqlarida tobora keng miqyosda qo'llanayotganligi (*birja, marketing, homiylik bozori, bozor iqtisodi* va b.), terminlarning stilistik maqsadlarda ishlatilayotganligi (*fan cho'qqisi, mash'al o'lka, zangori ekran, oq oltin* va h.) fikrimiz dalilidir. Tabiiyki, grammatik hodisalarni (ayniqsa, so'z yasalishi va morfologiyada) tavsiflayotganda bu hodisalari chetlab o'tib bo'lmaydi. Bu o'rinda shuni alohida ta'kidlab o'tishni lozim deb bilamiz. Hozirgi o'zbek tilining terminologik sistemalarida shunday faol jarayonlar yaqqol ko'zga tashlanmoqdaki, ular yaratilajak darslik va grammatikalarda ham o'z ifodasini topishi kerak

Xususan, o'zbek tilining ayrim ilmiy-texnik terminologik sistemalarida birikma terminlarning aniqlovchi komponentini hosil qilib kelayotgan eng faol affikslardan biri **-gich** hisoblanadi.[33, B. 34] Bu affiks morfologik nuqtai nazardan aniqlanmish komponentining sifat, sintaktik nuqtayi nazardan esa uning aniqlovchisi tarzida ishtirok etib, «biron narsani, ishni bajarishga, amalga oshirishga qaratilgan ma'nosini reallashtirib kelayotganligi uchun yuzlab birikma terminlar hosil qilib keladi. Masalan, shu xildagi birikma terminlar texnika sohasida ayniqsa, ko'plab ishlatilmoqda: *isitgich asbob, purkagich avtomat, ta'minlagich blok keskich bolt, jamlagich qurilma. yuritgich mexanizm, shakllagich zveno, kuzgatgich mashina* kabilar shular jumlasidandir. Shunday dalilni qayd etishni lozim deb hisoblaymizki, **-gich** yasovchisi ruscha-baynalmilal

asoslarga ham qo'shilib, o'zining sifat yasashdagi funksiyasini nihoyatda kengaytirib yubordi. Masalan: *balanslagich mashina, ionlagich ko'rilma, integrallagich kontur, tormozlagich qurilma* va b.

O'zbek tilshunosligida asosga qo'shilib «o'xshash, o'xshagan, o'xshaydigan» ma'nosini yuzaga chiqaruvchi **-simon** yasovchisi nafaol affikslar jumlasiga kiritilgan. To'g'ri, mazkur affiks adabiy til doirasida u qadar mahsuldor emas. Chunki uning o'rnida *-day (-dek)* affiksi yoxud «o'xshash», «kabi», singari» va hokazo leksemalar ko'prok ishlatiladi. Ona tilimizning terminologik sistemalarida esa *-simon* terminal elementi bilan yasalgan yetti yuzdan ortiq birikma termin mavjudligi aniqlandi.

Mazkur affiks ishtirokida boshqa tillardan o'zlashtirilgan, xususan, rus tili va u orqali yevropa tillaridan qabul qilingan asoclardan *konussimon g'ildirak, spiralsimon tish, enotsimon it, lyossimon yotkiziklar, sharsimon tutqich, kitsimon delfin* kabi terminlar yasalgan.

O'zbek tilining quyidagi terminologik sistemalarida *-simon* affiksi ishtirokida hosil qilingan birikmalardan faol ravishda foydalanib kelinmoqda:

Texnikada: *ko'priksimon kran, doirasimon shpindel, xalqasimon zichlagich, ponasimon tasma, quvursimon tirgovuch* va b.

Harbiy ishda: *yoysimon pritsel, yerto'lasimon panajoy, disksimon (diskasimon) magazin, qo'ziqorinsimon bulut, xalqasimon mushka, shoxsimon (naychasimon) magazin* va b.

Botanikada: *o'tsimon o'simliklar, arrasimon barg, panjasimon barg, barmoqsimon barg, yulduzsimon tukcha, tuvaksimon shingil, kopiksimon (urug'chi) barg* va b.

Zoologiyada: *odamsimon maymunlar, mushuksimon ilonlar, qanotsimon jabralilar, kalamushsimon kirpilar, quyonsimon kenguru* va b.

Tibbiyotda: *qalqonsimon bez, to'lqinsimon bez, suyaksimon buqoq tugunsimon bo'qoq* va b.

Kuzatishlardan ma'lum bo'lishicha, simvollar murakkab nomlarning tarkibiy komponenti sifatida ham keng qo'llaniladi.

O'zbek tilida ham simvollar ishtirokida yasalgan *U-simon choq P-simon skoba, I-simon shakl, U-simon seksiya, G-simon kombayn, T-simon qorishtirgich* kabi ko'plab birikma terminlar ishlatilmoqdaki, ular tarkibidagi *-simon* yasovchisi dominant rolini o'taydi.

Keltirilgan lisoniy dalillar shuni ko'rsatadiki, real borliqda paydo bo'lgan va paydo bo'layotgan yangi-yangi ilmiy-texnik tushunchalarning yuzaga kelishi munosabati bilan *-simon* yasovchisi birikma terminlarning muhim bir komponenti sifatida nihoyatda faollashib ketdi. Shunday ekan, yaratilajak darslik va grammatikalarda bu yasovchini faol affikslar qatoriga o'tkazish zarur.

Ayrim tilshunoslar o'zbek tilidagi **-ma** affiksining ot va sifat yasashda maxsuldorligi cheklangan deb hisoblashsa, boshqa tadqiqotchilar bu yasovchi mahsuldor affikslardan biri ekanligini uqtirishadi.

Tabiiyki, birinchi fikrga aslo qo'shilib bo'lmaydi. Chunki qo'limizdagi lisoniy dalillar ikkinchi fikrning mutlaqo to'g'ri ekanligini tasdiqlaydi. Xususan, «O'zbek tilining ters lug'ati»da *-ma* affiksi bilan yasalgan 396 ta leksema qayd etilgan. Ularning aksariyati sifat turkumiga oid bo'lib (shuni unutmaslik kerakki, *-ma* yasovchili u yoki bu leksema ham ot, ham sifat vazifasini bajaradi), tegishli aniqlanmishlar ishtirokida birikma terminlar hosil qilib keladi.

Hozirgi kunda «asos *-ma* yasovchisi» modelida yasalgan birikma terminlar ona tilimiz terminologik sistemalarining deyarli barchasida faol suratda ishlatib kelinmoqda:

—**texnikada:** *surilma qopqoq tirkalma ariqqazgich, aylanma disk(a), ko'chma ctanok, burama mix, yasama qolip, surilma zulfin, tebranma mayatnik, ag'darma plug* va b.;

—**botanikada:** *osma ildizlar, to'qima barg, bo'lma areal, tug'ma kasallik, uchma meva, egma urug'kurtak, ekma o'rmon, o'rama barg, qoplama qipiq, qo'ndirma payvand*;

—**anatomiyada:** *bo'ylama muskul, yopma narda, bukilma tizza, ag'darma chok tebranma arteriya, qoplama chok* va b.;

—**tibbiyotda:** *qaytalama terlama, ko'chma dorixona, tugma zahm,*

qichima yara va b.;

—**tilshunoslikda:** *ko‘chirma gap, o‘zlashtirma gap, ko‘chma mano, qisqartma so‘zlar, yasama so‘zlar va b.;*

—**harbiy ishda:** *yollanma armiya, kesishma o‘t, sochma o‘q, yonlama manyovr, agdarma nishon, ko‘chma mudofaa, sanchma qurol, kesishma o‘t va b.;*

—**kulinariyada:** *qaynatma sho‘rva, cho‘zma lag‘mon, qovurma lagmon, yorma go‘ja, dimlama tovuq, o‘rama go‘sht, to‘g‘rama palov, qiyma sho‘rva va b.;*

—**fizika-matematikada:** *tebranma spektor, urinma tezlanish, uyurma harakat, urinma tekislik, uchlama nuqta, chizma geometriya va b.*

Ana shu misollarning o‘ziyoq aniqlovchisi *-ma* yasovchili birikma terminlar o‘zbek tili terminologik sistemalarida barqarorlashib qolganini yaqqol isbotlaydi.

Ijtimoiy-siyosiy va ilmiy-texnik adabiyotlarda predmetning harakat belgisini reallashtiruvchi **-vchi (-ovchi, -uvchi)** yasovchisi vositasida aniqlovchi komponenti hosil qilingan ko‘plab birikma termin ishlatiladi. To‘plangan materiallar va o‘zbek tilining deyarli barcha terminologik sistemalarida aniqlovchi komponenti *-vchi* bilan yasalgan yuzlab birikma terminlarning turli terminologik sistemalarida faol ishlatilayotganligidan dalolat beradi. Chunonchi, bunday birikma terminlar texnika (*boshqaruvchi uzatma, kesuvchi kism, shibbalovchi mexanizm, parmalovchi asbob, o‘rmalovchi traktor*), harbiy ish (*portlovchi to‘siq, to‘suvi o‘t, qiruvchi samolyot, mo‘ljallovchi samolet, yondiruvchi bomba, mo‘ljallovchi raketa, parchalovchi bomba*), botanika (*ko‘tariluvchi kurtak, qamrovchi hujayralar, ajraluvni kurtak*) tibbiyot (*o‘rmalovchi yara, qaytalovchi terlama, qustiruvchi dori*) kabi ko‘plab sohalarda shu tipdagi birikma terminlar ko‘plab ishlatilib kelinmoqda.

Farmatsevtika sohasida ham shu xilda yasalgan qator terminlar mavjud.

O‘zbek tilining qator terminologik sistemalarida aniqlovchi komponenti *-chi* yasovchi vositasida ko‘plab birikma terminlar hosil qilingan; ularning aniqlanmish komponenti esa mavhum (abstrakt) yoki konkret ma’noli asoslardan iborat bo‘ladi va biror belgili, aniqrog‘i, sohalovchi komponentining biror ishga mo‘ljallangan,

biron narsani bajarishga qaratilgan» ma'nosini ifodalab keladi. Bundan birikmalar, jumladan, harbiy (*madadchi aviatsiya, navbatchi bo'linma, aloqachi kism, soqchi kema, ittifoqchi qo'shinlar*), botanika sohasida (*urug'chi gul, yog'chi bel, changchi gul, urug'chi tana*), grammatik (*ko'makchi fe'l, yordamchi so'z, sohalovchi komponent*), texnikada (*ishchi g'ildirak, etakchi val, ijrochi organ, yordamchi sistema*), ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy (*yordamchi korxona, yordamchi ishlab chiqarish*) terminologiyalarda tez-tez ishlatib turiladi.

Lisoniy dalillardan *-chi* yasovchisi vositasida «biror sohada biror vazifani, ishni bajaruvchi ma'nosidagi birikma holdagi shaxs nomlari yuzaga keltirilishi mumkinligi ma'lum bo'ldi: *langarchi matros, dozimetrchi konstruktor, razvedkachi uchuvchi, parashyutchi instruktor* kabilar shular jumlasidandir.

-chi yasovchisi yordamida hayvonot olamiga oid leksemalardan ham birikma terminning sohalovchi komponenti yasalishi mumkin ekan. Masalan: *kapachi qushlar, meshkopchi qushlar, baliqchi qushlar*.

Ma'lumki, muayyan shart-sharoitlar taqozosi bilan ona tilimizga ko'plab ruscha-baynalmilal leksemalar o'zlashtirilgan edi. Shu munosabat bilan *-chi* yasovchisi ruscha-baynalmilal asoslarga qo'shilib, yangi-yangi leksemalar hosil qildi va bu bilan u ishni qo'llanish doirasini kengaytirdi. Pirovardida, bu affiks ishtirokida sohalovchi komponenti «ruscha-baynalmilal asos *-chi* yasovchi ot» modeli asosida o'nlab birikma terminlar yuzaga keldi. Masalan: *parashyutchi desant, tralchi kema, marshchi bo'linma, proyektorchi qo'shinlar, razvedkachi samolyot*, va b.

Xullas, ijtimoiy-siyosiy hayotda ro'y bergan katta-katta o'zgarishlar, fan va texnikaning rypkirab rivojlanishi ta'sirida yangidan-yangi tushunchalar paydo bo'la boshladi; ularni ona tilimizda to'g'ri, aniq va ixcham ifodalash uchun sohalovchi komponenti *-gich, -simon, -ma, -vchi, -chi* singari yasovchilardan iborat bo'lgan birikma terminlar hosil qilish nihoyatda unumdorligi va faolligi bilan ajralib turibdi.

O'zbek tiliga oid darslik va grammatikalarda esa bu yasovchilarning ba'zilar umuman eslatib o'tilmasa-da, boshqalarining passiv ekanligi qayd etilgan.

Shunday ekan, o'zbek tilida (faqat o'zbek tilida emas, balki turkiy tillarda ham: chunki bu tillarda ham ayni shu xildagi manzaraga duch kelish mumkin) yaratilajak darslik qo'llanma, grammatika va monografiyalarda terminologik omillar ham e'tiborga olinsa, ayni muddao bo'lur edi.

1.3. Ingliz terminologiyasining o'ziga xos xususiyatlari

Ushbu bo'limda ingliz leksikologiyasining o'ziga xos xususiyatlarini ijtimoiy-siyosiy terminologiya va uni boshqa terminologik sistemalardan farqi misolida ko'rib chiqamiz. Shuningdek, yangi siyosiy-ijtimoiy leksikani shakllantirish yo'llari va usullari tasvirlanadi.

Keyingi o'n yillikda til va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarning turli xil qirralari mutaxassislarning jiddiy e'tiborini tortdi. XX asrning boshi umumbashariy ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, informatsion inqilob nomi bilan ataluvchi ilmiy-texnik jarayonning yangi bosqichida insoniyatning qiyofasini xarakterlovchi davr bo'lmoqda. Ijtimoiy sohadagi har bir o'zgarish til sistemasiga ham aniq o'zgarishlar olib kiradi.

Jamiyat ehtiyojlari asosida doimiy o'zgarishda bo'lib turadigan til ijtimoiy inqilobning ilmiy-texnik omillari ta'sirining obykti va ayniqsa, muloqotning texnik vositalar taraqqiyotining natijasi bo'lib qoldi.

Ma'lumki, ijtimoiy omillar ta'siriga eng ko'p tushadigan sath – bu tilning leksik-semantik sistemasidir. Aynan 90-yillarda til lug'at tarkibining kengayish tempi sezilarli darajada o'sgani bejiz emas. Tadqiqotchilarning aytishlaricha, ingliz tili lug'ati har yili 1500-2000 tadan iborat yangi birliklar bilan boyib bormoqda.

Fan, texnika, ishlab chiqarishning taraqqiyoti natijasida yuzaga kelayotgan terminologik leksikaning o'sib borishi bilan bog'liq tadqiqot ishlarining soni doimiy ravishda ko'payib bormoqda. Bu tadqiqotlarda, umuman terminologik leksikaning o'ziga xosliklari, shuningdek, alohida olingan termin tizimida umumxalq leksikasi va boshqa terminlar sistemasi qiyoslanadi, aniq bir termin bilan bog'liq muammo keng doirada o'rganiladi, terminlarni ishlab chiqish mezonlari, ularning lingvistik tabiati tadqiq qilinadi.

Bizningcha, ijtimoiy leksika va ijtimoiy–siyosiy terminologiya o‘rtasidagi chegara g‘oyatda beqaror bo‘lib, leksikaning bu qatlami keng tarqalgan va keng iste‘molga kirgan. Biz “ijtimoiy-siyosiy leksika terminlari” va “ijtimoiy-siyosiy terminologiya” bir xil ma’noga ega va ommaviy muloqot vositasi sifatida bitta leksik-semantik sistemaga tegishli deb hisoblaymiz.

Ravshanki, ijtimoiy-siyosiy terminlar ham boshqa har qanday terminlar bilan umumiy xarakterga ega, ular ham mashhur ilmiy tushunchalar bilan bog‘liq terminlar sistemasiga kiritiladi.

Ijtimoiy-siyosiy terminlarning boshqa terminlardan farqi nimada? Avvalo, shuni ta’kidlash kerakki, ijtimoiy-siyosiy terminlarni jamiyatning ijtimoiy hayotidan ayri olib qarashning iloji yo‘q, ya’ni ular boshqa terminologik sistemalarga qaraganda, ushbu terminlar jamiyat bilan o‘ta yaqin aloqadadir.

Shuni ham aytib o‘tish lozimki, hozirgi bosqichdagi insoniyat taraqqiyoti sharoiti, ijtimoiy-siyosiy leksikaning terminologik apparatining ishlatilish sferasi yanada kengaymoqda. Bu esa maxsus kommunikativ leksika va umumxalq leksikasi o‘rtasidagi chegaraning yo‘qolib borayotganidan darak beradi. Bu jarayon quyidagi faktorlar bilan bog‘lanadi:

Birinchidan, terminologik leksikaning me’yoriy til doirasiga kirib borishi ko‘p sonli kishilarning bu terminlarni o‘z nutqida ishlatishi ta’sirida;

Ikkinchidan, xalq bilim darajasining umumiy tarzda o‘sishi, uning siyosiy savodxonligi, oddiy fuqaroning ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar hamda harakatlarda ishtirok etishi, murakkab ijtimoiy tushunchalar va kategoriyalarning keng miqyosda qo‘llanilishi natijasida (bunday holat siyosiy hayotda bo‘lgan, iste‘mol jihatdan chegaralangan so‘zning umum iste‘moldagi leksikaga o‘tishida ro‘y beradi: *coupster, protectee, ramboism*);

Uchinchidan, jamiyat hayotida sodir bo‘layotgan u yoki bu voqea natijasida qaysidir ijtimoiy fanlardagi tushunchalar tor iste‘mol me’yorlaridan chiqadi.

Badiiy til sistemasidagi boshqa leksik-semantik birliklar qanday yuzaga kelsa, ijtimoiy-siyosiy terminlar ham shu kabi yo‘llar bilan paydo bo‘ladi. Lingvistlarning tadqiqotlariga ko‘ra, so‘z yasash jarayonida keyingi 10 yillikda

yuzaga kelgan yangi soʻzlarning 65% dan koʻprogʻi affiksatsiya va soʻzlarning oʻzaro birikib qoʻshma soʻzlar hosil qilishi asosida vujudga keldi.[9, B. 73] Ijtimoiy-siyosiy leksika sohasidagi soʻz yasashida quyidagi suffikslar eng faol rolni oʻynadilar:

-ism (short-termism, entryism), -dom (great powerdom, transgenderdom), -ization (globalization), -hood (celebrityhood).

Old qoʻshimchalar bilan soʻz yasashiga kelsak, u holda eng unumli old qoʻshimchalardan – *anti* qoʻshimchai orqali yasalyapti(antiterror). Shu qatorda *hyper* prefiksi yordamida yasalgan tor isteʼmol doirasidagi terminlarni ham misol tariqasida koʻrsatishimiz mumkin. Keyingi 10 yillikda uning yordamida umumtilga kiruvchi talaygina soʻzlar shakllandi: *hyperdemocratic, hyperspace*.

Old vositalar toʻliq bir soʻz vazifasini ham bajarishi mumkin. Keyingi 10 yillikdagi eng koʻp koʻzga tashlangan, “qariyb”, “deyarli” maʼnolarini anglatuvchi *near* elementidir. Masalan, *near-dictator, near-majority*. [21, B. 99]

XX asrning 90 - yillari ijtimoiy-siyosiy terminologiyasida murakkab soʻzlarning ancha sezilarli salmogʻi koʻzga tashlanadi. Ikki otning birikishi (N+N) ularning yaalishiga asosiy model boʻlib xizmat qildi. Misol tariqasida quyidagi murakkab soʻzlarni olishimiz mumkin: *brain-drink, workflow, couch potatoe*.

Soʻz yasashi jarayonida murakkab soʻzlarning yuqori faolligini taʼkidlab oʻtish kerak boʻladi: *couch potatoe – couch potatoedom, couch potatoeism; baby boom – baby boomer, baby boomlet*.

Murakkab soʻzlarning yasashida analogiya ham muhim rol oʻynaydi. Masalan, *airlift* soʻzidan *boatlift* soʻzi shaklangan. *Sky – jack, sea – jack* soʻzlari *highjack* soʻzi asosida vujudga kelgan.

Mavjud ijtimoiy–siyosiy leksikaning yana bir qismi qayta nomlanish asosida paydo boʻlgan soʻzlardan tashkil topadi. Boshqacha soʻz bilan aytganda, tilda allaqachon mavjud soʻzlar endi boshqa maʼnoni anglatishga xizmat qila boshlaydi.

Keyingi 10 yillikdagi semantik innovatsiyalar tahlili shundan guvohlik beradiki, asosan, leksik birliklarning funksional harakatchanligi ularning maxsus maʼno kasb etishi (spetsializatsiya, terminologizatsiya), aniqlashtirilishi

(determinologizatsiya) va transterminologizatsiya bilan bog'liq tarzda ularning ma'nolarining o'zgarib borishi ro'y beradi. Inson va jamiyat hayoti faoliyatining barcha sohalari dinamik bo'lganligidan terminlar ham o'z tabiatiga ko'ra dinamikdir. Qayta nomlangan yoki terminologizatsiyaga uchragan quyidagi so'zlarni misol qilib ko'rsatishimiz mumkin: *chernobyl*– ilmiy-texnik jarayon yutuqlarining keng va jadal qo'llanilishi natijasidagi tabiiy ofatni, *bridge builder*– tinchliksevar, butun dunyoda tinchlik bo'lishi tarafdori ma'nosini ifodalaydi.

Shuningdek, so'z migratsiyasi jarayonini, ya'ni bir so'zni bir termin tizimidan ikkinchisiga o'tishi ham ta'kidlab o'tilishi lozim bo'ladi. Ijtimoiy-siyosiy terminologiyada tibbiyotga oid terminlarning qo'llanilishi xarakterli holat kasb etdi. Masalan, *color-blind* daltonizmdan azob chekuvchi, rangni farqlay olmaydigan kishi ma'nosini anglatga, ijtimoiy-siyosiy terminologiyada esa irqiy xurofotga berilgan, faqat o'z mafkurasidan boshqa narsani ko'rmaydigan shaxsga nisbatan ishlatiladi. Avtomobilga oid termin *spark plug* mashina o't olganini ko'rsatuvchi yoritkichni, shuningdek, tashkilotchi va tashabbuskor kishi ma'nosida ham ishlatiladi. Yoki boshqa bir misol: *doorstepping* so'zi jurnalistlar jargonida odamlardan shov-shuvga sabab bo'ladigan biror ma'lumotni olish uchun ularni hol-joniga tegish, uylarigacha kirib borish va asabiga ataylab o'ynash orqali sir olish taktikasini bildiradi. Siyosatchilar tilida esa saylov oldi tashviqot ishlarini olib borish faoliyatini anglata boshladi.

Ijtimoiy-siyosiy terminologiyaning yana bir kengayishi yo'li bu chet tilidan kirib keluvchi o'zlashgan so'zlardir.

Tahlillarning ko'rsatishicha, aynan ijtimoiy–siyosiy va iqtisodiy sohalarda keyingi o'n yillikda eng ko'p innovatsiyani boshidan kechirgan soha hisoblanadi.

Masalan, ispan tilidan o'tgan o'zlashma so'zlar ingliz tiliga asosan uning amerikanacha varianti orqali kirib kelmoqda: *sicario* – *narkomafiyada faoliyat ko'rsatuvchi yollanma qotil*.

Rus va ukrain tillari ham ingliz tili lug'at tarkibini boyitishda davom etmoqda. Masalan, ruscha *nomenklatura* so'zi *kleptotura* terminining yuzaga

kelishida xizmat qildi (the thieving habits of the old nomenklatura under new post-communizm).

Ta'kidlash lozimki, ingliz tilining lug'at tarkibi boshqa tillardan kirib kelayotgan so'zlar hisobiga qanchalik jadal ravishda kengayib borayotgan bo'lsa, o'z ichki imkoniyatlari hisobiga ham shunday tarzda boyimoqda.

Bunday imkoniyatlar tilning lug'at tarkibini boyitadi va yangi so'zlar yasaliş elementlarini vujudga keltiradi.

Shuningdek, XX-XXI yuz yilliklar oralig'ida tilning lug'at tarkibida yangi ijtimoiy-siyosiy terminologiyaning vazifasi sferasining kengayishi ijtimoiy revolyutsiya ta'siri bilan ro'y berishini ko'rishimiz mumkin.

Zamonaviy ingliz tili terminologiyasining o'ziga xos xususiyatlari va belgilari to'g'risidagi fikrlarni mustahkamlash va to'ldirish maqsadida biz ingliz yuridik terminologiyasiga ham murojaat qildik. Chunki, ingliz terminologiyasi juda keng bo'lib, uning imkoniyatlari, hosil bo'lish yo'llari, o'ziga xos xususiyatlari, juda ko'p va juda kengdir. Shu sababli hozirgi ingliz terminologiyasiga umumiy izoh berish mushkuldir. Ingliz yuridik terminologiyasining o'ziga xos xususiyatlari ko'p va turli-tuman, shu paytning o'zida o'ta qiziqarli hamdir. Shuning uchun ham ingliz terminologiyasining ayrim belgilarini yuridik terminologiya misolida ko'rsatishga harakat qildik.

Yuridik ingliz tili me'yoriy ingliz tilidan turli jihatlariga ko'ra o'ta sezilarli darajada farq qiladi. Eng muhim farqlar esa quyidagilardir:

1. San'atga oid terminlarning qo'llanilishi. Yuridik ingliz tili ko'plab kasbiy tilga oid, boshqalarga tanish bo'lmagan so'zlar bilan birgalikda terminologiyada katta o'rin egallaydi: *waiver*, *restraint of trade*, *restrictive covenant*, *promissory estopped* kabi.

2. Chet tilidan asosan fransuz va lotin tilidan o'zlashgan so'zlar.

3. Umumxalq tilida mavjud bo'lgan so'zning aynan bir kontekstda qo'llanilib, o'ziga xos ma'no ifodalashi. Masalan, ingliz tilda tez-tez qo'llaniladigan *consideration* so'zi yuridik tilda "savdo-sotiqda narx yuzasidan ikki tomonning kelishuvida ma'lum bir narsani sotib olayotgan tomonning

shartnomani imzolash jarayonida tuzilgan dalolatnomaga nisbatan ishlatiladi. Yuridik ingliz tilining maxsus matnlarida tez-tez qo'llaniluvchi, bir vaqtning o'zida umumxalq tiliga ham mansub bunday so'zlarga ko'plab misollar keltirish mumkin: *construction, prefer, redemption, furnish, hold, find* kabi.

4. Tinish belgilarining qoldirilishi. Bu yuridik hujjatlarda an'anaviy mavjud noodatiy jihat hisoblanadi va biz bu holatni asosan dalolatnoma va bitim kabi hujjatlarda kuzatishimiz mumkin. Bu hujjatlarda deyarli tinish belgilarining ishlatilmasligining guvohi bo'lamiz. Buning sababi shu sohada faoliyat ko'rsatuvchilar, xususan sudyalarning tinish belgilari unchalik ahamiyatga ega emas, yuridik hujjatlarning ma'nosi faqat o'sha kontekstda ishlatilgan so'zlarga bog'liq deb ishonishgan. Ammo hozirgi yuridik ingliz tilida tinish belgilari doimiy yozuvda ma'noni ravshanlashtirish uchun qanday tartibda qo'llanilsa, shunday ishlatilishi kerakligi shart qilib qo'yilgan.

5. Noodatiy so'z tartibi. Yuridik hujjatlarda odatda so'z tartibi doimo g'alati tarzda ishlatilib kelingan. Masalan, *hereinafter appearing or will at the cost of the borrower forth comply with the same*. Garchi fransuz tili grammatik strukturasi bilan bog'liq omilning ta'siri sezilib turishiga qaramasdan bu hodisani izohlab beradigan aniq bir sabab yo'q.

6. Notanish olmoshlarning qo'llanilishi. Masalan, *the same, the said, aforementioned* (o'sha, aytib o'tilgan, aynan) kabi. Bu singari olmoshlarning yuridik matnlarda ishlatilishi juda qiziqarli holat. Ma'lumki, olmosh ot, sifat, son o'rnida qo'llaniluvchi so'z turkumi hisoblanadi, ammo ta'kidlab o'tilgan holatlarda olmosh ot o'rnida emas, balki unga qo'shimcha ma'no, sifatida qo'llaniladi: *the said John Smith*.

7. *Here, there* va *where* kabi so'zlar. *Hereof, whereof, thereof* (shuningdek, -*at, -in, -after, -before, -with, -by, -above, -on, -upon* kabi boshqa vositalar yordamida) singari so'zlar odatiy ingliz tilida ishlatilmaydi. U ilk yuridik ingliz tilida hujjatdagi ayrim ma'lumotlarni, xususan, hujjat nomining o'zini hadeb takrorlashning oldini olish uchun ishlatilgan: *parties hereto* birikmasi *parties to this contract*.

8. *-er, -or, va-ee* kabi ot yasovchi qo'shimchalar. Yuridik ingliz tili ko'plab unvon va kasb nomlarini bildiruvchi otlarni o'z ichiga oladi: *employer-employee; lessor-lessee* kabi. Ularda o'zaro munosabatning ikki tomonlama va qarama-qarshi tabiati qo'shimchalarni qo'llash orqali ko'rsatiladi. Yuridik terminologiyadagi bu usul lotin tiliga borib taqaladi.

9. Fe'lli birikmalarning ishlatilishi. Fe'lli birikmalar ingliz tilida muhim rol o'ynaydi va ular tez-tez deyarli texnik ma'noda ishlatiladi. Masalan: *parties enter into contracts – put down deposits, serve (documents) upon parties, write of debts* va boshqalar.

1.4. O'zbek tilida ingliz tili leksikasiga xos birliklarning qo'llanilishi

O'zbek tilida yangi terminlarning kirib kelishi 90-yillargacha rus tili ta'sirida ro'y bergan bo'lsa, undan keyin tilimiz ingliz tilidan kirib kelgan neologizmlar hisobiga boyiy boshladi. Buning asosiy sababi mustaqillikdan keyin O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga qo'shilishi va fan, madaniyat, ijtimoiy hayot va san'atdagi turli xil umumbashariy yangiliklar xalqimizning hayotiga jadallik bilan kirib kelishidadir. Bu jarayon qanday tez sur'atda boshlangan bo'lsa, hozir ham shundayligicha davom etib bormoqda.

Ma'lumki, hozirgi kunda ingliz tili dunyodagi eng ommabop tilga aylandi. Dunyoning hamma burchaklarida bu tilni maktablarda, oliy o'quv yurtlarida va individual tarzda o'rganadilar. Hozirgi davrda juda ko'plab mehnat idoralarida, xalqaro aloqalarda ingliz tili keng qo'llanilmoqda. Jahonning boshqa tillaridagi kabi o'zbek tilida ham neologizmlarning katta qismini ingliz tili leksikasidan o'tgan so'zlar tashkil qiladi.

Ingliz tili leksikasiga xos bo'lgan birliklarni kundalik hayotimizning barcha jabhalarida, matbuotda, televidinieda, oddiy so'zlashuvda tez-tez eshitamiz va ularni o'z nutqimizda qo'llaymiz. Quyida ayrim misollarni keltirishimiz mumkin:

“Bugun global muammolarga aylanib ulgurgan xalqaro terrorizm, diniy ekstremizm va fanatizm kabi illatlarning oldini olish muhim ahamiyat kasb etadi” (gazeta nutqidan). Bu jumlada *terrorizm* (qo'rqitish va qotillikkka asoslangan

harakat), *ekstremizm* (siyosiy maqsadlarda zo‘ravonlikdan foydalanish), *fanatizm* (ma’lum bir aqidaga o‘ta berilib ketish) so‘zlari ingliz tili leksikasiga xosdir.

“Bahs-debat” markazi tomonidan amalga oshirilgan seminar-trening yoshlarning siyosiy ongini takomillashtirishni ko‘zda tutadi”(gazeta nutqi) gapida esa *debat* (bahs, munozara), *trening* (shug‘ullanish, mashq qilish) so‘zlari nutqimizga ingliz tilidan kirib keldi.

Yoki gazetadan keltirilgan boshqa misolga e’tiborimizni qaratamiz:

«... ta’minotchilar o‘rtasida tender tanlovi o‘tkazilishini ma’lum qiladi».

Ingliz tili leksikasining o‘zbek tili leksikasiga bo‘lgan ta’sirini asosan qaysi sohalarda kuzatishimiz mumkin?

Bilamizki, O‘zbekistonda mustaqillikdan so‘ng jadal o‘zgarishlarni boshidan kechirgan soha – bu ijtimoiy hayotimiz hisoblanadi. Xuddi mana shu sababdan ham eng ko‘p inglizcha terminlar miqdori ijtimoiy hayotimizda kuzatiladi. Masalan: *mobil telefon, paynet to‘lovi, DVD, CD, player, internet-cafe* kabi.

Ammo ingliz tili leksikasi hayotimizning boshqa sohalari, fan, san’at, iqtisodiyot sohaslarini ham boyitdi. O‘zbek tilining quyidagi terminologik sistemalarida ingliz tili leksikasi o‘zlashgan so‘zlardan faol ravishda foydalanib kelinmoqda:

Texnologiyada: *kompyuter, disk, disketa, sms, fotoshop, skanner, paynet, bluetooth, operator, MP-3, MMS, sayt, WEB-sayt, Microsoft Word, Microsoft Office, informatsion texnologiyalar.*

Iqtisodiyotda: *audit, aukcion, barter, biznes, benefisiar, byudjet, grant, gomogen buyumlar, devalvatsiya, depozit, deflyasiya, dividend, diskonta, differensial mahsulot, kompaundlash, iqtisodiy renta, iqtisodiy agentlar va hk.*

Tabiiy fanlarda: *antigen, restriktaza, transgen o‘simliklar, ekssizitsiya, transmissibl plazmid, transformatsia, differensiatsiyalash, akklimitizatsiya, konveyer, reseptor (biologiya); spint svant soni, gomogen qotishmalar, getrogen qotishmalar, intermetall qotishmalar, antifriz modda (ximiya); reverberatsiya, kondensatsiya, sublimatsiya, variatsion prinsip (fizika) va hk.*

San'atda: *xit, klip, shou-dastur, serial, prodyuser, pop, jazz, rep, rok, sound-track, superyulduz, brek-dans, imidj, remiks, dizayner va hk.*

Maishiy hayotda: *VIP, bar, restoran, xot-dog, gamburger, chizburger, intervyu, syurpriz, skanvord, krossvord, menyu, internet klub, reception, Fast Food, supermarket, Mc-Donald, ketchup.*

Sportda: *boks, taym, refere, sportsmen, tennis, basketbol, gandbol, beysbol, gol, chempion, rekord, turnir, treyner, final, nokaut, nokdaun, voleybol, bouling, aut, fol, moytay, ring, key kabi.*

Tilimizga kirib kelayotgan ingliz tili leksikasining o'ziga xos talay xususiyatlari mavjuddir. Mana shu xususiyatlardan biri ularning imlosidir. Ayrim inglizcha terminlar borki ular ingliz tilidan qanday o'tgan bo'lsa shundayligicha yoziladi. Bu kabi terminlar sirasiga *paynet, Fast Food, MP-3, MMS, sound-track* va hokazolarni kiritishimiz mumkin.

Ikkinchi turdagi imlo qoidasiga ko'ra ingliz tili leksikasiga xos termin o'zbek alifbosida, kirillcha yoki lotincha harflar bilan yoziladi. Misol tariqasida *kompyuter, mobil aloqa, internet, skanvord, syurpriz, krossvord* kabi so'zlarni kirtishimiz mumkin.

Ingliz tilidan kirib kelgan terminlar ham o'z iste'mol darajasiga ko'ra, o'zbek tilida so'zlashuvchi aholiga tanishligi daragasiga ko'ra ikki guruhga bo'linadi:

Birinchi guruhga kundalik hayotga tezlik bilan kirib kelayotgan, aholining katta qismiga tushunarli bo'lib qolgan (tilning yadro qismiga tomon siljib borayotgan) *prezident, kompyuter, krossvord, klip* kabi so'zlar kiradi. Ayrim neologizmlarda bu jarayon juda tez kechadi. Bu esa so'z ifodalayotgan narsa yoki buyum shu tilda so'zlashuvchi kishilar tomonidan qay darajada iste'mol qilinishiga bog'liq. Masalan, *paynet* terminining ijtimoiy hayotimizga kirib kelganiga hali unchalik ko'p vaqt bo'lgani yo'q, ammo bu termin allqachon ko'pchilikka tushunarli bo'lishga ulgurdi va bu jarayon davom etmoqda.

Ikkinchi guruhga esa, o'zlashganiga ko'p vaqtlar bo'lgan, ammo hali tilning periferiya qatlamida turgan so'zlar kiradi. Ularga asosan, ma'lum kasb, soha yoki biror fanga tegishli terminlar kiradi: *operator, prodyuser, sayt* kabi.

I bob bo'yicha xulosa

Ona tilimiz ingliz tilidan soʻz olish bilan cheklanib qolmasdan, oʻzlashtirilgan inglizcha soʻzlardan yangi yangi terminlarni yasamoqda. Bunda asosan qoʻshma soʻzlar yasalishi kuzatilmoqda. Masalan, *super* termini asosida sanʼatda *superyulduz*, *super qoʻshiq* kabi yangi teminlar vujudga keldi. Yoki *paynet* termini orqali kirib kelgan *paynet toʻlovi*, *paynet xizmati* kabi qoʻshma soʻzlarni ham kiritishimiz mumkin. Shuningdek, *shou* soʻzi asosida yasalgan *shou-dastur* termini ham buning yaqqol misoli boʻla oladi.

Koʻrinib turganidek, ona tilimizning lugʻat tarkibi tezlik bilan boyib bormoqda. Bunda, ayniqsa, hozirgi davrda ingliz tilining oʻrni beqiyos boʻlmoqda. Jahon tili hisoblangan ingliz tilidan faqatgina soʻz qabul qilib qolmasdan, ular asosida yangi terminlarning yasalayotgani oʻzbek tilimizning keskin boyishiga katta taʼsir koʻrsatmoqda va bu shubhasiz, quvonarli holdir.

II BOB. REALIYA, MILLIYLIKKA XOS SO`ZLAR TUSHUNCHASI

2.1. RealIya tushunchasi va uning tasniflanishi

Ilmiy adabiyotlarda bir millatga mansub bo'lgan realiyalarning yoki umuman xorijiy so'zlarning o'zga tillarga ko'chib qolishi birgina adabiy aloqalarning, ayniqsa, tarjimaning rivojlanishiga bog'liq emas. Bu xalqaro aloqalarning, siyosiy-tarixiy, madaniy voqea va hodisalarning o'zga xalqlar dunyoqarashiga ta'siri bilan ham bog'liq. Aynan shu tufayli masalan rus tili orqali o'zbek tiliga, siyosatga, dinga, iqtisodga, fanga oid juda ko'plab xorijiy so'zlar, realiyalar singib ketgan. Bu o'rinda xorijiy adabiyotlarning tarjimasi orqali o'zbek kitobxonlariga ko'pincha tushunarli bo'lmagan, boshqa millatlarning turmushiga, dunyoqarashiga xos bo'lgan ko'plab tushunchalarni ifodalovchi realiyalar kirib kelayotganligini ham alohida ta'kidlash lozim.

Realiyalar, milliy va mahalliy o'ziga xoslikni ifodalovchi so'zlarni badiiy tarjimada qayta yaratish muammolarini o'rganishdan oldin tarjimashunoslik nuqtai nazaridan realiyalarning umumiy klassifikatsiyasi, milliy va mahalliy o'ziga xosliklarni ifodalovchi so'zlarga qanday leksik birliklarni kiritish mumkinligini jiddiy o'rganishga to'g'ri keladi. Bu masala nazarimizda bolgar olimlari S.Vlaxov va S.Florinlarning yuqorida tilga olingan “Непереводимое в переводе” va I.K.Mirzayevning “слова реалии и вопросы художественного перевода” kitobida atroflicha va chuqur o'rganilgan. S.Vlaxov va S.Florinlar o'z tadqiqotlarida realiyalarga predmetlik tushunchasini ifodalash nuqtai nazaridan mahalliy sharoitga, tarixiy davrlarga mansubligi jihatdan yondoshib klassifikatsiya qilishni taklif qiladi. Ular predmedlik belgisiga muvofiq tushunchalarni ifodalovchi realiyalarni katta guruhlariga bo'lishadi:

I. Geografik va etnografik tushunchalarni ifodalovchi tushunchalar.

-Geografik tushunchalarni ifodalovchi realiyalarga fizik geografiyaning obyektlarini ifodalovchining (*preriya, tornado, sunami, step, pampa*) tushunchalarini kiritadi.

-Inson faoliyati bilan bog'liq bo'lgan geografiyaning obyektlarini ifodalovchi tushunchalar: *djungli, chaltik, grid, yazovir, kriga*.

-Endemik tushunchalarni ifodalovchi soʻzlar: *kivi, kaola, qor odam, probka dubi*.

Olimlarning taʼkidlashlaricha geografik tushunchalarni ifodalovchi botanika geografiya, zoogeografiya, poleogeografiyaga oid terminlarga yaqin turadi va ular orasidagi chegarani aniq belgilash mumkin emas. Bunday tushunchalarni tarjimada berishda tarjimondan lugʻatlarga, ensiklopediyalarga qarash, tushuncha ifodalovchi bu soʻzni tarjima tilida keng yoki tor doirada tarqalganlik darajasi, soʻz ifodalovchi koloritni kontekstni chuqur oʻrganish talab etiladi.

Etnografik realiyalar ham oʻz navbatida quyidagi kichik guruhlariga boʻlinadi:

I. Maishiy turmush tushunchalarini ifodalovchi realiyalar:

a) oziq-ovqat, ichimlik, maishiy muassasa (ommaviy ovqatlanish korxonalari) nomlarini ifodalovchi tushunchalar: *shi, cheburek, pirog, spaghetti, qimiz, boʻza, sidr, choyxona, taverna, bistro, hammom, sauna*.

b) kiyimlar, bosh kiyimlar, poyavzal turlari nomlarini ifodalovchi tushunchalar: *burnus, kimono, sari, sombrero, kubanka, sala, paranji, qalpoq, chopon, yaktak, kamzul*.

c) turar joy, uy-jihozlari, idishlar nomini ifodalovchi tushunchalar: *izba, yurta, vigvam, bjungalo, burjuyka (pechka)*.

d) transport vositalari va ularning haydovchilari nomini ifodalovchi tushunchalar. *Rishka, fiakr, troika, katamaran, yamshik, kember, gondolier*.

II. Mehnat faoliyatini ifodalovchi tushunchalar:

a) mehnatkashlar: *peredovik, udarnik, brigadier, tabelshik, fermer, konserjka, dvornik*.

b) mehnat qurollari nomini ifodalovchi tushunchalar: *machete, kobilka, guberka, lasso, garpun, bagor*.

c) mehnat tashkilotlari nomlarini ifodalovchi tushunchalar: *kolxoz, rancho, latifundiya, glavka, agrokompleks, geldiya, korxona*.

III. Sanʼat va madaniyatga oid tushunchalar:

a) Musiqa va raqs nomlari: *kazachok gopak, lezginka, tarantella, tanavor polka*,

b) Musiqa asboblari nomlarini ifodalovchi tushunchalar: *balalaika, getara, tamtam, nay, gʻijjak, dutor*.

- c) Folklorga oid tushunchalar: *saga runa, qasida, g`azal, chastushka, vityaz, latifa, yalla.*
- d) Teatrda oid tushunchalar: *kabuki, po, komediya, arlekin,*
- e) San`atga oid narsalar nomini ifodalovchi tushunchalar: *ikebana, sino, makonda, chinte, xalishe.*
- f) Ijro etuvchilar nomini ifoda etuvchi tushunchalar: *trubadur, baxshi, kobzar, skoromox, skald.*
- g) Urf-odat va marosimlarni ifodalovchi tushunchalar: *martinitsa, konfirmatsiya, vendetta, tamada, maslenitsa, ramazan, aqiqa.*
- h) Bayramlar va xalq o`yinlarini ifoda etuvchi tushunchalar: *paxsa, qurbon hayit, lapta, gorodki, kriket, gorodoschnik,*
- i) Mifologiyaga oid tushunchalar: *leshiy, pari, qorbobo, gnom, yolmog`iz kampir, uchar gilam, jar ptiysa, jin, dev,*
- j) Diniy tushunchalarni ifodalovchi so`zlar: *lama, xo`ja, abbat, shaman, bonza, gugenot, darvish, haj, machit, kostel, sinagoga.*
- k) Taqvim sanalarini ifodalovchi so`zlar: *vayshak, baba marta, savr, qish chillasi, javzo, saraton.*

IV) **Etnik obyektlarni ifodalovchi tushunchalar:**

- a) etnonimlar: *apach, bantu, kazax, bask, turk,*
- b) Hazil, kinoya ma`nosidagi millatni ifodalovchi laqablar: *kasap, xoxol, bosh, frits, gringo, yanki,*
- v) Yashash joyga mansub aholi aholi nomlari: *traskon(lik), gabrova, overn, vodiy(lik).*

V. **O`lchov va pul birliklarini ifodalovchi tushunchalar:**

- a) Og`irlik o`lchovlari: *arshin, fut, sajen, yard, li, pud, botmon, akr, arpan, qadoq, chorak.*
- b) Pul birliklari: *lev, rubl, kopeyka, frank, santim, dinor, chaqa, miri, so`m.*

IV. **ijtimoiy-siyosiy tushunchalarni ifodalovchi realiyalar:**

- 1) adminstrativ-hududiy tushunchalarni ifodalovchi so`zlar:

a) hududiy boshqaruv tushunchasini ifodalovchi soʻzlar: *guberniya, department, kanton, tuman, viloyat*.

b) aholi turar joylari nomlarini ifodalovchi ifodalovchi tushunchalar: *ovul, mahalla, daha, qishloq*.

c) aholi punktining maʼlum qismini ifodalovchi tushunchalar. *arrondissman, kreml, agora, hovli, ayvon, ichkari, tashqari*.

2) hukumat organlari va lavozimlarini ifodalovchi tushunchalar:

a) *qurultoy, senat, ijroqum, hokim, seym, дума, rada, veche, palata*.

b) *kansler, xon, amir, shoh, faroan, lord, mer, sheriff, vazir, getman, kabaka*.

3) Ijtimoiy-siyosiy hayotga mansub tushunchalarni ifodalovchi soʻzlar:

a) siyosiy tashkilotlar va siyosiy arboblarning nomlari: *peronistlar, bergistlar, tori, jadidlar*.

b) vatanparvarlik va ijtimoiy harakat nomlari, vakillarini ifodalovchi soʻzlar: *partizanlar, gezlar, xaydutlar, karbonarilar, maki, slovyanofin, qizilxoch*

c) ijtimoiy hodisalar va harakatlarning vakillari: *nep, nepman, lobbi, tolkach, tiffosi*.

d) unvon, daraja, mansabni, murojaat shakllarini ifodalovchi soʻzlar: *bakalavr, magistr, knyaz, shaxzoda, graf, baron, gersog, lord, ser, madam, miss*.

e) muassasa nomini ifodalovchi soʻzlar: *zags, narkompros, hokimiyat*.

f) oʻquv yurtlari, madaniyat muassasalari nomlarini ifodalovchi soʻzlar: *oʻrta maktab, kollej, litsey, madrasa, texnikum*.

g) irq, toifa va ularga mansub kishilar nomini ifodalovchi soʻzlar: *dvoryan, meshchan, yunker, braxman, samuray, mujik*.

h) toifaga oid belgi va ramzlar : *beshtulduz, yarim oy, oq nilufar*,

4. harbiy tushunchalarni ifodalovchi ifodalovchi realiyalar:

a) qism nomini bildiruvchi soʻzlar: *legion, falanga, orda, legiya, kogorta, lashkar, qoʻrboshi*.

b) qurol-yarogʻni ifodalovchi soʻzlar: *arbalet, arkebuza, mushket, yatagan, katiyusha, xanjar*,

c) harbiy kiyim, aslahalarni ifodalovchi soʻzlar: *shlem, temir qalpoq, kolguga, dubilgʻa, bronjilit, mundir, kitel, bushlat*.

d) harbiy xizmatchilar nomlarini ifodalovchi soʻzlar: *ataman, yasovul, oʻnboshi, yuzboshi, sardor lashkarboshi, praporshik, gardemarin, yanichol, unter, dragun, kraser*.

Bolgar olimlari S.Vlaxov va S.Florinlar taklif qilgan bu klassifikatsiyadan dengizchilikka, baliqchilikka, qishloq xoʻjalik ekinlariga oid tushunchalarni ifodalovchi soʻzlar qolib ketgan. Masalan,

a) dengizchilikka oid tushunchalarni ifodalovchi soʻzlar: *gavan, buxta, machta, rumple, shkot, planshir, vaxta, yunka*.

b) baliqchilikka oid tushunchalarni ifodalovchi soʻzlar: *makrel, tunes, marlin, bonito, krivitka, galano*.

c) qishloq xoʻjaligi va ekinlariga, oʻsimliklarga xos tushunchalar: *bahori, lalmi, omoch, barona, sharbat suvi, oq oltin, momiq; qovun nomlari: asadi, amiri, boʻrikalla, odimi*

d) Yovvoyi oʻsimliklar: *kampirchopon, otquloq, tuyatovon, kiyikoʻt*.

Bolgar olimlari realiyalarni mahalliy shart-sharoitga koʻra klassifikatsiya qilar ekanlar yuqorida keltirilgan tushunchalarni muayyan millatga mansubligi, ularning boshqa tillarga oʻgirishdagi xususiyatlari nuqtai nazaridan tasnif qilinishini alohida taʼkidlaydilar. Shunga koʻra ular realiyalarni bir til qobigʻida muayyan xalqqa, territoriyaga mansub realiyalar va tarjima tillarida ishtirokiga koʻra ichki va tashqi realiyalarga kirib borishi, keng ishlatilishiga koʻra ularni milliy, lokal, mikrolokal va internatsional realiyalarga ajratishi mumkin. Milliy realiyalar odatda faqat asliyat tiliga mansub boʻlgan tushunchalarni ifodalaydi. Masalan, inglizcha *heath*- hech narsa oʻsmaydigan botqoqlik joyni, *ale-shaffof* ingliz pivosini, ispancha *galanos*-akulaning bir turini, *karakatitsa, umbritsa*-dengiz baliqlarini, nemischa *bosch*-bosh nemislarning kinoyali laqabini anglatadi. Shu jihatlari bilan ular bir millat territoriyasining bir boʻlagida yashovchi aholining oʻziga xos tushunchasi boʻlsa, ular lokal, mikrolokal xarakterga ega boʻladilar. Aynan mana shunday realiyalar tarjimonda asliyat tilidagi bu tushunchani teran anglab olishlikni, shu

joyga xos milliy, tarixiy, ijtimoiy siyosiy voqeliklardan yaxshi xabardorlikni talab qiladi.

Internatsional realiyalar ijtimoiy, siyosiy, madaniy aloqalar tufayli boshqa tillarga o'tib qolgan so'zlarni ifodalaydi. Ular bunday holda ham milliy, mahaliy koloritlarini saqlab qolishi bilan xarakterlanadi.[24, B. 65] Masalan, inglizcha "cowboy" aslida "otboqar" degan ma'noni anglatadi. Hozirgi paytda bu so'zlar ko'pgina tillarga "kovboy" shaklida o'tib, "qo'rquv bilmas", ma'nosida o'tgan.

Ijtimoiy hayotning muayyan davriga xos realiyalar zamonaviy va tarixiy realiyalarga bo'lib o'rganiladi. Shunga ko'ra badiiy asar tarjimasida bu faktor tarjimondan realiya ifodalagan tarixiy-arxaik ma'noni yaxshi bilishlikni talab qiladi. Ko'pgina tarixiy realiyalar bizning davrimizga kelib arxaizmga aylanib qolgan. Tarjimonlikda zamonaviy va tarixiy realiyalarni aks ettirishda aslyat mansub bo'lgan mamlakatga xos tarixiy davrlarni, muhim ijtimoiy, siyosiy voqealarni, adabiy oqimlar, muallifni qaysi oqimga mansubligini bilish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, o'zbek adabiyotidan biror xorijiy tilda tarjimaga qo'l urgan tarjimon o'zbek xalqini ijtimoiy-siyosiy tushunchalarini:

-IX asrlardan boshlab O'Osyo Rossiya tomonidan bosib olinguncha bo'lgan davrda vujudga kelgan realiyalar.

-O'zbekiston mustaqillikga erishgandan keyingi davrda tilimizdagi ichki va tashqi realiyalar nuqtai nazaridan o'rganishlari mumkin.

Bolgar olimlari zamonaviy realiyalarni tasnif qilar ekan ularni tanish va notanish realiyalarga bo'lib o'rganishni taklif qiladilar. Darhaqiqat iqtisodiy, madaniy, siyosiy aloqalar tufayli tilimizga kirib kelgan juda ko'p inglizcha, ruscha, fransuzcha realiyalar alaqachon o'zlashtirilgan so'zlarga, lug'at tarkibidan mustahkam o'rin olgan so'zlarga aylanib qolgan. Masalan:

Inglizcha- *ser, miss, gudbay, hello*

Nemischa- *gerr, bizness, biznesmen,*

Fransuzcha- *bonjur, madam, madmazel, fermer.*

Ruscha- *soldat, kurтка, stakan, prujina* kabi so'zlar barcha o'zbeklarga tushunarli bo'lgan tanish leksikaga aylanib ketgan.

Realiyalar klassifikatsiyasini chuqur o'rgangan Surxondaryolik olim V.V. Vinogradov bolgar olimlarining fikrlariga qo'shilgan holda xorijiy matbuot organlari nomlarini, xalq an'analari, urf-odatlarini, arxitektura yodgorliklari nomlarini fraziologizmlarda ifodalagan xos ma'noli birliklarni ham realiyalar sifatida o'rganishni taklif qiladi[8, B. 265].

2.2. Ingliz va o'zbek tillarida realiyalar

Dunyo tili va madaniyatlarini solishtirishda mos keladigan va kelmaydigan unsurlar ajralib turadi. Madaniyatning tarkibiy qismi sanalgan til mos kelmaydigan unsurlar sirasiga kiradi. Solishtiriladigan tillar qanchalik o'ziga xos bo'lsa, qanchalik uning tarixida madaniy aloqalar kamroq bo'lsa, shunchalik ular birbiridan butunligicha yoki qisman farq qiladi. Mos kelmaydigan unsurlarga avvalambor ekvivalentsiz leksika bilan belgilanadigan predmetlar va bir tilga xos so'zlar hamda boshqa tilda mavjud bo'lmagan yoki so'zlarda farq qiladigan konnotatsiyalar kiradi.

Realiya bu faqat muayyan millat va xalqlarga tegishli bo'lgan moddiy madaniyat ashyolari, tarixiy faktlar, davlat institutlari nomi, milliy va folklor qahramonlarning ismlari, mifologik mavjudotlar va h.k. nomlaridir. Tillarni chog'ishtirganda ushbu holatlarni anglatuvchi so'zlarni ekvivalentsiz leksikaga kiritadilar. Ekvivalentsiz leksika boshqa madaniyatda mavjud bo'lmagan va qoidaga ko'ra boshqa tilga bitta so'z bilan tarjima qilinmaydigan, o'ziga tegishli til doirasidan tashqarida muqobili bo'lmagan tushunchalarni ifodalash uchun xizmat qiladigan so'zlar hisoblanadi. Ingliz tilidagi realiyalarni tarjima qilishda odatda tarjimonlar uzundan uzoq ta'riflarga tayanishgan yoki o'zlarining neologizmlarini taklif qilishlariga tog'ri keladi. Masalan: viktrola-Victrola (muayyan markadagi apparat; Victor- radio va teleapparatura ishlab chiqaruvchi firma nomi); bukmeker-book-maker (poyga paytida tomoshabinlar tikadigan pulni qabul qiluvchi kishi); rodster- roadster (usti ochiladigan ikki o'rindiqli mashina).

Ekvivalentsiz leksika tillarni solishtirganda oson aniqlanadi, chunki unda mazkur til tomonidan voqelikning bo'linib ketish xususiyati va madaniyatning o'ziga xosligi yaqqol namoyon bo'ladi. Agar ekvivalentsiz leksikaga nafaqat

kundalik turmush realiyasi belgilarini, balki davlat-siyosiy tuzumi, xalqning madaniy hayoti va ishlab chiqarish turli sohalarining o'ziga xos nomlanishini kiritisa, har bir xalq tilidagi realiyalar soni yanada oshadi.

Til va madaniyatlarni solishtirganda anglanadigan (realiyadan tashqari) va anglatuvchi (shakldan tashqari) orasidagi farqni ajratib ko'rsatish mumkin. Anglanadiganlar o'rtasidagi farq quyidagi holatlarda kuzatiladi:

1) Bir til jamoasiga xos realiya boshqasida mavjud bo'lmaydi. Masalan, AmE. *drug store*-dorixona; *Yellow pages*-telefon ma'lumotnomasining sariqrangli qog'ozli tijorat bo'limi.

2) Realija ikki til jamoasida ham mavjud bo'ladi, ammo birida u alohida yoki maxsus holda ifodalanmaydi. Masalan, AmE. *clover leaf* - beda yaprog'i ko'rinishidagi avtoyo'l chorrahasi.

Ingliz tilidagi realiyalarga inglizlarga xos bo'lgan milliy kiyim kechaklar, oziq- ovqat va ichimlik turlari, umumiy ovqatlanish shahobchalari nomlari, pul birliklari va hakazolarni kiritish mumkin. Masalan, oziq ovqatlar- *biscuit*, *hamburger*, *sandwich*, *toast*, *hot dog*, *pudding*, *omlet*, *sausage*, *chips*, *crisp*, *jam*, *mash*, *celery*, *berkswell*, ichimliklar: *fizzy drink* (soda), *yogurt*, *wine*, *cola*, *cocktail*.

Turli xil jamiyatlarda bir-biriga o'xshash vazifalar har xil realiyalar (turli xil realiyalarning funksional o'xshashligi) vositasida amalga oshiriladi. Masalan, Am.*hotdog* - issiq sosiskali buterbrod; AmE. *soda fountain* - muzqaymoq kafesi

O'xshash realiyalar funksional jihatdan farqlanadi. Masalan, *cuckoo's call* "kakkuning sayrashi" amerikaliklarning ishonchiga ko'ra qiz bolaning turmushga chiqishiga necha yil borligiga ishora qiladi, ruslarda esa inson qancha yil umr kechirishini bildiradi.

Qiyosiy lingvoo'lkashunoslikda solishtirilayotgan tildagi so'zlarning leksik ma'nosidan butunlay yoki qisman farq qiluvchi, tili o'rganilayotgan mamlakatning tarixi, madaniyati, iqtisodi va turmush tarzi bilan bog'liq predmet yoki hodisani ifodalovchi so'zlar realiyalar hisoblanadi.

1960 yillar oxirida AQShning Massachusetts shtatida joylashgan uncha katta bo'lmagan Chappaquiddick (Chappakviddik) oroli nomi mashhur bo'ldi. U yerda 1969 yil 18 iyul kuni yarim tunda bir qarashda oddiy ko'rinadigan avtohalokat yuz berdi. Senator Edvard Kennedi boshqarayotgan mashina ko'prikdan pastga qulagan va u bilan birga bo'lgan kotibasi Me`ri Kopechni mashinadan chiqib olmay cho'kib ketgan. Bu hodisadan E`.Kennedining siyosiy raqiblari foydalanishgan va Chappakviddik so'zi AQSh prezidentligi lavozimiga E.Kennedining nomzodi haqida gap borganda matbuot sahifalarida paydo bo'lardi. 1970 yillar oxirida AQShning ko'pgina yuqori lavozimdagi shaxslari, shu qatorda kongressmenlarning poraxo'rlik bilan shug'ullanganligi fosh bo'ldi. FQB josuslari arab shayxlarining kiyimida ularga yirik miqdorda pul berib qo'lga olishgan. Bu narsa yangi realiya Abscam (jinoyatchilik bilan kurashish bo'yicha maxfiy operatsiyaning qisqartirilgan nomi "Arab scam") ni vujudga keltirdi.[29, B. 199]

Mahalliy diqqatga sazovor joylarning nomlari mahalliy realiyaga misol bo'ladi. Bunday joylar hatto o'z hududidan tashqarida mashhur bo'lishiga qaramay (ba`zan milliy madaniyat fondiga kirgan holda), aynan o'sha joy bilan bog'liq holda eslanadi. Masalan: Cabildo - Kabildo (Yangi Orleandagi ispan general-gubernatorining sobiq rezidensiyasi), Alcatraz- Alkatraz (San-Fransisko yaqinidagi shu nomli orolda joylashgan sobiq qamoqxona) yoki Freedom Trail - "ozodlik marshruti" (Shimoliy Amerika mustamlakalarining mustaqillik uchun kurashi bilan bog'liq tarixiy yodgorliklarni ko'rish bilan Boston shahrining markaziy qismi bo'ylab o'tadigan sayyohlik marshruti).

Realiya alohida jamoa yoki muassasa doirasida chegaralangan bo'lishi ham mumkin. Asosan talabalar va harbiylar jargoni bunday realiyaga boydir. Ba`zi bir bu jargonizmlar lokalizm va professionalizmlar darajasiga o'tib ketadi.

Davriy kolorit ham realiyaga xosdir. Madaniyat bilan chambarchas bog'liq til hodisasi sifatida ushbu leksik birliklar jamiyat taraqqiyotidagi barcha o'zgarishlarga tez ta`sir qiladi. Ular orasidan neologizm, istorizm va arxaizm realiyalarini osongina ajratib ko'rsatish mumkin. Masalan, 50-60 yillarda AQShda yosh avlodning isyoni tilda beatnik, beat generation (charchagan, singan, ko'ngli

sovigan avlod) kabi so'zlar ning paydo bo'lishi bilan aks etadi. 50-yillarda vujudga kelgan bu realiya avvalo neologizm sifatida qabul qilindi, keyin asta-sekin boshqa tushuncha hippie (hippi, zamonaviy burjua jamiyati ahloqi va turmush tarzini rad etuvchi hamda o'z protestini g'ayri odatiy kiyinishi va fe'l-atvori, o'zini tutishi bilan ifoda etuvchi yoshlar) ga almashdi.

Realiyada til va madaniyat o'rtasidagi yaqinlik yaqqol namoyon bo'ladi. Jamiyatning moddiy va ma'naviy hayotida yangi realiyalarning paydo bo'lishi tilda realiya vujudga kelishiga olib keladi. Leksika ijtimoiy hayotning barcha o'zgarishlariga o'z ta'sirini ko'rsatishi sababli tilda yangi realiyalarning paydo bo'lish paytini aniq aytish mumkin.

Biroq bir vaqtning o'zida eng oddiy tushunchalarni ifodalay turib, shu bilan birga mazmuniy va hissiy "fonli" nozik farqlarni ham ifodalovchi ko'pgina so'zlar mavjud. Tilda "konnotativ so'zlar"ni leksik birlikning o'ziga xos tipi sifatida ajratish shak-shubhasiz maqsadga muvofiqdir, chunki konnotatsiyalar, ya'ni so'zlarga hamrohlik qiluvchi stilistik, emotsional va mazmuniy farqlar o'z-o'zidan mavjud bo'lmaydi, ular so'z ma'nolaridan biriga bog'lanadi.

Realiyani tilning boshqa so'zlari bilan taqqoslaganda uning farqli tomoni shuki, realiya ifodalaydigan predmet, tushuncha, hodisaning bir tomondan xalq bilan va boshqa tarafdin vaqtning tarixiy bo'lagi bilan yaqin aloqasi hisoblanadi. Bundan milliy, mahalliy yoki tarixiy koloritning realiyaga xosligi ko'rinib turibdi.

Xuddi shunday o'zbek tilidagi realiyalar o'zbek xalqiga xos bo'lgan milliy o'ziga xoslikni ifoda etuvchi liboslar, milliy taomlar va ichimliklar, joy nomlari ham realiya sifatida o'zga xalqlar tilida talqin qilinadi. O'zbek xalqining milliy o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi qadimgi davrlarda yaratilgan va hozirgi kunda foydalaniladigan, madaniyati va tarixi bilan uzviy bog'liq bo'lgan kiyimlar hozirgi kunda butun dunyoga tanilmoqda. O'zbek milliy liboslariga ayollar uchun zar chopon, do'ppi, kamzul, erkaklar uchun do'ppi, chopon, belbog' va yaktak kabilar kiradi. O'zbek milliy libosi jahonda o'z o'rniga ega. Bular: Do'ppi- O'zbekistonda keng tarqalgan yengil bosh kiyim. Do'ppi asosan baxmal, ipak, zar bilan tikiladi. O'zbekiston Chust, Toshkent, Samarqand, Buxoro

do`ppilari bilan mashhur. Do`ppi tikuvchi chevar “do`ppido`z”, do`ppi tikish kasbi esa “do`ppido`zlik” deyiladi.

Ro`mol- ayollar milliy bosh kiyimi bo`lib, ayollar yoshiga mavqeyiga qarab turli xildagi ro`mollarni o`rashadi.

Paranji- o`zbek ayollari qadimda yuzlarini begona kishilardan yashirish uchun yopinib yurishgan.

Zar chopon- O`zbek ayollarini qishda sovuqdan saqlovchi kiyimdir. Bu chopon asosan baxmal, ipak, zar bilan tikiladi. Chopon o`zbek xalqining qadimiy kiyimlaridan biridir.

Chiroyli atlas, adras kabi ipak matolar qadimdan o`zbek ayollari sevib kiyadigan milliy matolardir. Bu mato ipakdan tayyorlanadi. Qancha-qancha zamonlar o`tib ketsa ham bu matolardan o`z davriga moslab, xoh o`zbekcha, xoh yevropacha uslubda kiyimlar tikib kiyish urfga kirgan. O`zbekistonda eng mashhur atlas Marg`ilon shahrida to`qiladi.

Oyoq kiyimlardan uzun qo`nqli, poshnasiz, tag charmi yumshoq bo`lgan kovush bilan kiyiladigan mahsi milliy poyabzal hisoblangan.

O`zbeklarga xos bo`lgan yana bir milliy buyum bu kashta hisoblanadi. Kashtachilik O`zbekistonning ko`pgina hududlarida rivojlangan bo`lib, ulardan Buxoro viloyatidagi Shofirkon va Nurota kashtachilik maktablari o`zining naqshlari ranglari, tikilish uslubi bilan farqlanadi.

Bundan tashqari o`zbek milliy taomlari nomlari ham realiyalar safiga kiradi. Shohona taom hisoblanmish osh, ulug` ne`matimiz non, patir, bahorning tansiq taomi bo`lmish sumalak, somsa, chuchvara, manti, xonim, mastava, kabob, va ichimliklardan choy shular jumlasidandir. O`zbek xalqiga mansub umumiy ovqatlanish joylari nomlaridan choyxona, oshxona kabilarni misol keltirish mumkin.

Shu kabi bir-birlarini nomlaridan va tayyorlanish usullaridan mutlaqo farq qiladigan ingliz va o`zbek xalqiga xos bo`lgan taomlar, ichimliklar va milliy liboslar nomlari ikki tilga xos maishiy realiyalar sirasiga kiradi.

II bob bo'yicha xulosa

Shunday qilib, ingliz va o'zbek tillaridagi realiyalarni o'rganib ularni tarjima qilishni bir necha usullarda amalga oshirilishini ko'rib o'tdik. Bunda asosan, qilingan tarjimalar rus tili orqali amalga oshirilganligi sababli, tarjimon o'zbek tiliga amalga oshirgan tarjimasida asliyat matnini chuqur tushungan holda tarjima qilishi kerakligini kuzatdik. Realialarni tarjima qilish jarayonida tarjimondan nafaqat keng tarjimashunoslik to'g'risida nazariya bilimlardan, balki, o'zga xalqlar turmush sharoiti, madaniyati, urf-odatlar haqidagi bilimlardan ham boxabar bo'lishi talab etiladi. Umuman badiiy asarni tarjima qilish, tarjimonning shaxsiga, uning intellektiga, uning qobiliyati va tarjimasiga, tarjimashunoslik sohasidan xabardorligiga, tarjima jarayoniga va matn uslubiga ham bog'liq.

Shuni aytib o'tish joizki, realiya atamasining keng qo'llanilishiga qaramay, tadqiqotchilar na lingvistikada, na metodikada realiyani ta'riflovchi etarlicha aniq kriteriyalarning yo'qligini hamda ushbu realialarni belgilovchi til birliklarining spesifikasi umuman o'rganilmaganini ta'kidlashadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, tarjimon o'zi o'girayotgan kitob matni ichra chegaralangandir. Muallif ilgari surgan g'oyadan chetga chiqolmaydi, tarjimon shunga qaramay til sohasida ijod qilar ekan, tilning asosiy qurilish materiali so'z bilan ishlaydi. Badiiy adabiyot uchun g'oyatda muhim bo'lgan ko'rsatkichlar –badiiylik, obraz va obrazlilik, barchasi so'z zahirida yashiringan, so'z orqali reallashadi. Binobarin so'z tanlash badiiy tarjimada birlamchi ahamiyatga ega.

O'zbek tarjimachiligi amaliyotida qo'llanilayotgan vositali til orqali o'g'irish tajribasi, ularga munosabat, bunday tarjimalar metodikasiga alohida to'xtashga to'g'ri keladi. Ma'lumki, g'arb adabiyoti jumladan, ingliz, nemis, fransuz, ispan va boshqa adabiyotlar bevosita o'sha tillarning o'zlaridan emas, balki ruschadan tarjima qilinadi. Vositali tarjimalar xususiyatlarini o'rganish lozim. Bu esa hozirgacha G'arbiy Yevropa adabiyotidan o'zbek tiliga qilingan tarjimalar tarixiga baho berish hamda tegishli tadbirlar ishlab chiqish demakdir.

Shuni nazarda tutish kerakki, tarjima qilish jarayonini ikki tilni qiyosiy, uslubiy o`rgangan holda amlga oshirish maqsadga muvofiq sanaladi. Badiiy tarjimani qiyosiy uslubshunoslik asosida o`rganish muammosini taniqli rus tarjimashunos olimi A.V.Fyodorov va boshqa olimlar ilmiy asoslab berganlar.

III BOB

MUQOBILSIZ BIRLIKLAR TARJIMASIGA DOIR

3.1. Atamalar, neologizmlar, atoqli otlar va geografik joy nomlarini tarjima qilishning o'ziga xos xususiyatlari

Tarjima ma'naviy faoliyat bo'lib, qadim zamonlardan beri aks etib kelmoqda. U butun jahon madaniyati va alohida xalqlar madaniyati tarjimada muhim ahamiyatga ega bo'lib kelmoqda. Rivojlanib borayotgan qardosh xalqlarning aloqasiga ko'ra XX asr boshlarida tarjima faoliyati mislsiz, ko'rinmas quloq yozdi.

Tarjima qardosh xalqlar tillari hamda xorijiy tillari o'rganishning muhim shartlaridan biri sifatida o'quv jarayonining barcha bosqichlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, u o'quvchi va talabalarning o'rganilayotgan tillarini emas, balki ona tili hodisalarini ham ongli ravishda o'zlashtirishlariga ko'maklashadi.

Butun hayot jabhalarini qamrab olgan taraqqiyot va ilmiy – texnik revolyutsiya va u bilan bog'liq bo'lgan xalqaro hamkorlik va kutilayotgan demografik portlash va boshqa mavjud bo'lgan muhim sivilizatsiyalar davlatlararo aloqani va xar xil tilda gaplashuvchi elat va millatlar jamiyatining rivojlanishiga olib keladi.

Tarjimaning maqsadi A.Fyodorov ta'kidlashicha, chet tilini bilmagan o'quvchini mumkin darajada matn bilan yaqindan tanishtirishdan iborat.

YA.I.Retsker tarjimaga quyidagicha aniqlik kiritadi: Tarjima – boshqa til birliklari orqali mazmun va uslub birligini saqlagan holda asl nusxani qayta ishlash demakdir.

Tarjima murakkab jarayondir. Asl nusxani aniq va to'g'ri mazmunini uzatish uchun faqatgini to'g'ri keladigan so'zlarni topish kifoya emas, lekin grammatik shakl va birliklarni ham o'z ichiga olishi kerak. hisobdan tashlab bo'lmaydigan ko'pgina omillar ham ko'pchilik hollarda bularga aralashib turadi.

Turli tillarning semantik sistemalaridagi tafovut – bu shubhasiz dalil – ko'plab qiyinchiliklarning manbasi hisoblanadi. Tarjima qilishi jarayonida quyidagi muammolar yuzaga keladi:

1. Leksik muammo. Tarjima qilinayotgan tilda (chet tili leksik) birliklarining muqobil variantlarning yo‘qligi.

2. Stilistik muammo. Neytral so‘zlardan tashqari, ayrim aniq janrlar doirasidagina qo‘llaniladigan ayrim so‘z va so‘z birikmalarining mavjudligi.

3. Grammatik muammo. Grammatik vositalarning boshqa bir chet tilida yo‘qligi.

Boshqa tilda yaratilgan nutq asari asosidagi aniq asl nutqiy asar tarjimaning obyekti hisoblanadi. Tarjima qilishda matnning mazmunini tushunish va shu mazmunni boshqa til birliklari va vositalari orqali yetkazib berish kerak. Bunda semantik yo‘qotishlardan qochib bo‘lmaydi.

Turli yozuvchilar uslubining bir – biridan farqlanishi, xar bir yozuvchi boshqalarnikidan ajralib turadigan o‘z individual uslubiga egaligi, bir yozuvchining ijodida turli uslub yo‘nalishlari namoyon bo‘lishi, ular o‘zlarining har xil asarlarini bir – birida xiyla jiddiy farq qiladigan uslubda yozishga va aksincha, bir asarning o‘zida turli uslub jilolarining chirmashib ketishi – bularning barchasi tarjimondan asl nusxaga mos uslub kalitini topishni talab etadi.

Gazeta va ilmiy-texnikaviy matnlari bilan ishlashda o‘zbek tiliga tarjima qilishda soni mos kelmaydigan otlarga duch kelishimiz mumkin. Ta’kidlash joizki, ingliz tilida ularning sonidan qat’iy nazar, ular o‘zbek tili normalariga muvofiq tarjima qilinadi. Buni bir necha misollarda ko‘ramiz: The horror of Vietnam-Vetnamdagi urush dahshatlari. It is there that anxieties are most pressing - Ayni shu erda qo‘rquv ayniqsa kuchlidir.

Gazeta va ilmiy-texnikaviy nutqida quyidagi otlar ko‘p uchraydi:

News- yangiliklar	information- xabarlar
Evidence- ko‘rsatmalar	debate – munozaralar
Wages- maosh	contents- mazmun,mundarija
Economics- iqtisodiyot	imports- import

Butun birikma sifat ma'nosida kelsa, ot bilan son birikmalaridagi otning birlikda ishlatilishiga gazetxon e'tiborini qaratishimiz lozim.

Masalan: a five – year plan, on eight- years schooling, a six- day visit, a 1200-bed hospital. Ko'p hollarda asliyat bilan tarjimadagi otlar sonlari mos kelmaydi.

Britain is the source of the phrase “brain- drain” which describes the movement of British talent to the USA- Breyn-dreyn birikmasining vatani – Buyuk Britaniya bo'lib, uning ma'nosi iqtidorli, bilimli inglizlarni AQSHga aldab chaqirishdir.

Qadimgi ingliz tilida hamma otlar qaratqich kelishigida aniqlovchi vazifasida ishlatilishi mumkin edi. Biroq, keyinchalik faqat jonli narsalarni ifodalovchi otlar qaratqich kelishigida egalikni ifodalash uchun ishlatila boshladi. Hozirgi ingliz tilida esa, qaratqich kelishigida jonsiz predmetlarni ishlatish an'anasi ham rivojlanib bormoqda. Bu birinchi navbatda vaqt, masofa, keyingi paytlarda esa mamlakat, tashkilot va muassasalarni ifodalovchi otlar ham egalik kelishikda ishlatilmoqda. Masalan, The Republics Supreme Council, Britain's Labour movement, France's policy.

-s qo'shimchasi butun bir so'z birikmaga, egalik belgisi sifatida tegishli bo'lishi mumkin. Bu birika genetiv guruh deb ataladi. Masalan: the disarememment Commetee's Session-qurolsizlanish qo'mitasining yig'ilishi.

The Queen of England's policy- Angliya qirolichasiing siyosati.

Xalqlarning turli tabiiy, iqtisodiy – ijtimoiy – siyosiy sharoitda yashashlari natijasida ularning ongi, dunyoqarashi va alohida turli maxsus tushuncha va normalar, prinsiplar qaror topadiki, bularning hammasi ham tilda aks etadi. Lekin, texnik taraqqiyot rivojlanishida boshqa bir davlatda paydo bo'lgan tushunchalarni anglatuvchi terminlar boshqa bir tilda muqobil variantga ega emasligi ham mumkin. Chunki, har bir tirik til tanaffussiz o'zgarish va jadal taraqqiyotda bo'ladi. Uning olg'a siljuvchi komponentlaridan biri lug'at hisoblanadi. Boshqa til jabhalariga qaraganda, hammadan oldin leksik katta dinamika orqali uning kengayish va o'zgarish va rivojlanishi isbotlab berilgan.

Muqobil variantga ega bo'lgan leksika – bu shunday soʻz yoki soʻz birikmasiki til taraqqiyoti boskichlarida paydo bo'lgan narsalar, jarayonlar va borliqni anglatuvchi soʻzlar bo'lib, ular tarjimada muqobil variantga ega emas. Muqobil variantga esa bo'lmagan leksiklar sifatida «haqiqiy amerikanizm»larni, neologizmlarni misol keltirish mumkin. Masalan: «selectman» – «shahar boshqaruvining aʼzosi» (Yangi Angliya shtatlarida), «drugstore» dorixona. Muqobil varianti bo'lmagan leksikani boshqa tilga tarjima qilishda qiyinchiliklarga duch kelishingiz bu tabiiy hol.

Tarjima qilingan misollar etarli darajada, shuni koʻrsatadiki, tarjimonda muqobil variantga ega bo'lmagan leksikani qayta frazalash orqali tarjima qilinadi. Muqobilsiz variatning mavjudligi oʻsha tarjima qilinayotgan tilda shu tushunchani beruvchi mos soʻzning yoʻqligi bilan ifodalanadi. Masalan, oʻzbek tilidagi «qora kun» mazmunini ingliz tilida ochib beruvchi «rainy day» mavjud bo'lgan bir paytda yovuz fikrlarni tarjima qilish uchun mustahkam ekvivalentning ingliz tilida yoʻqligi, uning gloomy thoughts, dark thoughts, evil desiona, evil sheming, simster plans kabi tarjima qilishga olib kelgan.

Ikkinchidan, nomuqobil variantga ega bo'lgan leksiklarning paydo bo'lishi, shunda namoyon bo'ladiki, tarjima qilinadigan tilda, oʻsha yoki boshqa leksik birliklarning umuman muhimligi bilan birga shu soʻz xaqida tushunchalarning va ularni tarjima qilishda, transleteratsiya, kalkalash yoki maʼnosini ochib berish uchun tariflashdan foydalanish kerakligini koʻrsatadi. Masalan: «Davlat dumasi» kabi soʻz birligi uchun qanday muqobil kerak? Koʻrinib turibdiki, biz bu yerda «duma» soʻzini kalkalash orqali «The State Duma» deb tarjima qilamiz.

3.2. Muqobilsiz leksik birliklar oʻzbek tiliga tarjima qilish usullari

Atamalarning ilmiy matnlarda ishlatilishi xarakterli holatdir. Avvalambor, atama, yangi soʻzlar qanday leksik birliklar bo'lishini koʻrib chiqdik. Birinchidan, umumadabiyotga kirgan tushunchani ifodalash uchun yoki hodisa yo jarayonni anglatish uchun yuzaga kelgan soʻz va soʻz birikmalar atamalarning mohiyati ostida yotadi. Muqobilsiz leksik birliklarni tarjima qilishda asosan, oʻzbek tilida

muqobil variantlarni torish yoki muqobili topilmasa quyidagi tarjima usullaridan foydalaniladi:

1. Transkripsiya.

2. Transliteratsiya.

3. Kalkalash.

4. Tasviriy yoki ta'rifiy ifoda.

Transkripsiyalash. Tarjima amaliyotining hozirgi vaqtda transkripsiyalash metodi diqqatga molik ravishda eng keng tarqalgan bo'lib, u so'zning orfografik shaklini berishga ega emas, balki fonetikasini bera oladi. [26, B. 187] O'zbek va ingliz tillarining fonetik sistemasining muhim farqiga binoan, bunday uzatish birmuncha sharti va bir qancha ingliz jaranglashining ayrim o'xshashlik va o'xshamasligini ishlab chiqaradi.

Umuman olganda, tarjimon transkripsiyani ishlatganda albatta, transliteratsiya elementlarini chetlab o'tib ketolmaydi. [27, B. 233] Hammasini qo'rib, umuman transliteratsiya va transkripsiya elementlari quyidagilarda o'z aksini topadi:

1. Talaffuz qilinmaydigan tovushlar transliteratsiyasi.
2. Reduksiyalangan unlilar transliteratsiyasi.
3. Ikki marotabalik undoshlarning transliteratsiyasi.
4. Mavjud bo'lgan ayrim variantlarning ya'ni, grafikdagi eng yaqinlari.

Atamalarning transkripsiya orqali tarjima qilishga misol sifatida quyidagilarni kiritishimiz mumkin.

«New York» – «Nyu York», «Brown» – «Braun», «Brifing» - «brifing»
Amnesia – amneziya, aorta – aorta, biliburubinum – bilirubin, virus – virus,
vitaminum – vitamin, habitus – gabitus, hallicunatio – gallyusinatsiya, gastritus –
gastrit, haemotologia – gematologiya, haemogramma – gemagramma,
haemoglobinum – gemogloblin, hepatitis – gepotit, hygiena – gigiena, dieta – dieta,
eustachi – evstaxit, immunitas – immunitet, infarctus – infark, insulinum – insulin
va boshqalar.

Transliteratsiyalash. Bunday nomlanishga sabab, tarjima harakatida bu usullarni ishlatishda uning o'rniga tovush harakati yoki tarjima qilinayotgan chet tilidan ona tilidagi so'zlarning mazmunini grafik shaklini berish orqali yuzaga keladi. Biroq, bu usul tarjimasiz ko'rinadigandek, lekin dalillarga asoslansak, bu erda bir-birini o'rnini bosish, uni jonlantirish uchun muhim zamin sifatida faqat tarjimani amalga oshirish uchun qo'llaniladi. O'rnini bosuvchi so'z tarjima qilinayotgan tilning dalili bo'lib qoladi va shunga binoan chet tilidan ham tashqi ko'rinishlari bir xil ekvivalent sifatida ishlatiladi.

Umuman olganda, bu yo'l tabiiy til muammolaridagi doirada keng tarqalgan va qadimgilardan biri bo'lsa-da, u hozirda ham muhim ahamiyatga ega ekanligini davom ettirmoqda. Haqiqatdan ham bu usuldan foydalanish hozirgi paytda qator ko'plab chegaralar bilan bog'liq (til siyosati, stilistik normalar, turli xil sotsiallingvistik, jamoatlarning, urf – odatlari va boshqalar).

Transliteratsiya metodi o'zbekcha harflar bilan inglizcha so'zni tashkil qiluvchi harflarni berish metodidir. Masalan; «Nikkey» - «Nikkey» (Tokio fond birjasida qimmatbaho qog'ozlar kursining indeksi). Transliteratsiya XX asr oxirigacha tarjimonlar tomonidan keng qo'llanilgan. Bu uchun tarjimonga albatta, ingliz tili talaffuzini bilish shart emas edi, u ko'rish qobiliyati orqali chegaralanishi mumkin edi. Hozirgi vaqtda transliteratsiya deyarli barcha tarjimonlar tomonidan ishlatilayapti. Masalan, «Inauguration» - «Inauguratsiya», «Benelux» – «Binelyuks».

Kalkalash. Xususan, kalkalash tarjima qilish usullari ichida alohida o'rin tutgan holda, u to'la tarjima qilinadigan va tarjima qilinmaydigan leksiklar o'rtasidagi o'rinni eplaydi. Kalkalashning o'zgarmasligi ichki formasining o'zgarmagan holda saqlanganligida namoyon bo'ladi. Kalkalash ichki til o'rtasida to'g'ri keladigan ichki tomonlama o'zaro tillarda bo'lgan elementlar leksik birliklarga tayanadi.

O'sha leksik birliklar qurilish materiali sifatida ishlatilib, o'zlashtirilgan ichki shaklni yoki tarjima qilinayotgan so'zni tiklaydi. Kalkalash so'zma-so'z tarjimaga qarindosh ekvivalentni yasash usuli sifatida – ekvivalent butunligi uni tashkil

qilgan qisimlardan ekvivalentlarning oddiy qo'shish orqali yasaladi. Shundan kelib chiqadiki, kalkalash faqat qo'shma otli so'zlarda uchraydi. Masalan, «Multicurrency» so'zi ikki qism – ya'ni «multi» va «currency» so'zlardan tashkil topgan bo'lib, «multi» ya'ni ko'p (ko'plikni anglatuvchi suffiks) «currency» «valyuta» ma'nolarini beradi. Bu so'zlarning ma'nosini umumlashtirish orqali «ko'p valyutalik» masalan, kredit yoki «interbank» (market)=inter (xalqaro) + bank (bank) = xalqaro bank (bozori) kalkalash usulining ustunligi shundaki, bu orqali biz ekvivalentning aniq va osonlikcha aniqlanishi va uning boshlang'ich (ma'nosi) so'zga bir ma'noli munosabatini ko'rsatib beradi.

Garchi, ekvivalent – kalkalash so'zma – so'zlikka uchrasalarda, qisqaliliklar va potensial terminologik gazeta – publitsistik va umumiy – ilmiy ishlarda qo'llanilishi uchun o'ta jozibador qilib ko'rsatib turadi.

Kalkalash misollar o'zbek tili mazmunini vositalar orqali va yangi inglizcha so'z orqali yoki so'z birlikmasining morfologik shaklining qaytadan tiklanishidir. Masalan, «Air bridge» – Havo ko'prigi, «Nuclear umbrella» – yadroviy soyabon va hokazolar.

Ta'rifiy tarjimaga misollar:

«To lobby» – Parlament a'zolariga ya'ni deputatlarga va ularning okruglariga tazyiq o'tkazish uchun delegatlarni jo'natish, «Deterrent» – Bezash uchun moslama, qurol – yarog', «Reducdancy» – Shtatlar qisqartmasi bo'yicha lavozimdan bo'shatish, «Anslide» - Saylovlardagi to'la g'alaba, «Gimmick» – hiyla, ayyorlik, ayyorona moslashish, hammani diqqatini jalb qilish uchun yo'naltirilgan xiyla, «Brain drain» – Olimlar immigratsiyasi, malakali kadrlar immigratsiyasi, «Think Tank» – Izlanish olib beruvchi guruh, «Brain – washing» - Idiologik tozalash (ongni), «Low profile» - Kamtarin, bilinar – bilinmas, «High profile» - Ochiq rangdagi, ko'zga tashlanadigan, «Runaways» – Boshqa davlat yoki territoriyaga ko'chirilgan korxonalar

3.3. Gazeta va ilmiy-texnikaviy matnlarda muqobilsiz bilrliklar tarjimasi

Atamalarning dunyoga kelish manbai bu gazeta va jurnallardir. Chunki, ularda asosan siyosiy vaziyatlar, taraqqiyot mevalari o'z aksini topadi. Affikslar va

soʻz birikmasidagi asos va aniq affikslar toʻplamli affiksal atamalarning paydo boʻlishi gazeta uslubiga xos xususiyatlardan biri hisoblanadi. Baʼzan affikslarning boshqa nutq uslublarida ishlatilmay qolingan boʻlsa-da, ammo bu affikslarni gazeta uslubida atamalarni yaratishi uchun yangicha qoʻllash mumkin. Koʻp hollarda bunday affikslar, oldin ularga toʻgʻri kelmaydigan maʼno va mazmunlar yaratadi. Masalan, «ship» - Bu anglosakson suffiksi oʻz vaqtida holat, mavhum otlar yasash uchun qoʻllanilgan edi. Hozirda esa gazeta uslubida «ship» suffiksi «man» morfemasi bilan sifat va belgi mʼnolarini beruvchi otlar yasashdi.

Masalan: «Brinkmanship» – urush chegarasidagi muvozanat

«Oneupmanship» – birlashishga intilish

«Snowmanship» - shamgʻalat qilib, biron – bir narsani koʻrsatish

«Statemanship» – Davlat arbobining donoligi

Shu bilan birga hozirgi gazeta va jurnallarda «Dom» bilan yasalgan yangi soʻzlar (neologizmlar) paydo boʻlmoqda. «Bangdom» – uyushtirilgan banditizm, «Bogdom» - hayot toʻsiqlari, «Officialdom» - rasmiy doira

Bu soʻzlarni tarjima qilishda biz tarixiy jarayonlarni ham hisobga olamiz. Chunki, qoʻyida keltirilgan soʻzning oʻzagi «Leo» – A.A.Leonova yaʼni rus fazogiri familiyasidan kelib chiqqan. [27, B. 254] U birinchilardan boʻlib, ochiq kosmosga chiqqan. «Institutionalize» - qonunlashtirmoq

Solishtiring: «Their march from Hyde Park to Trafalgar Square gave a sample of the massive strength which the movement can mobilize to crush an evil (race discrimination) which had become almost institutionalized in Britain (MS)

Buyuk Britaniyadagi deyarli rasmiylashgan dushmanga barham berishga safarbar qilina oladigan katta kuchlar harakati ularning «Gayd Parkdan» to «Trafalgar» maydoniga yurishigagina namuna edi.

Yangi antonimik siyosiy terminlar ham gazeta va jurnallarda tez-tez uchrayib turadi. Masalan, «Demilitarization» - «remilitarization» «nazification» (natsizmning dunyoga kelishi) oxirgi paytlarda gazeta va jurnallarda «non» – prefiksi orqali yasalgan yangi neologizmlar paydo boʻlmoqda. «NoN-access» to

cledr weapons – yadro qurollariga ruxsat bermaslik, «Non-union» kasaba uyushmasining a'zosi bo'lmaganlik.

Gazeta leksikasida siyosiy voqea va hodisalarda, reklamalarda ko'pincha otlashgan yangi so'zlar uchraydi. Bu konversiyaning bir turi bo'lib, unda so'z faqat otga tegishli bo'lgan belgilarni oladi, masalan artikl yoki ko'plik shaklini Masalan, «The needy» – muhtojlar, «The coloureds» – rangli aholi.[29, B. 125]

Bundan tashqari gazeta o'qish mobaynida o'quvchi yangidan – yangi qisqartmalarga duch keladi. Ularni biz lug'atlardan topa olishimiz qiyinroq kechadi, chunki ular jamiyatda paydo bo'layotgan yangi tushunchalar natijasi va jarayonlarning jadal rivojlanishi oqibatidir. Yangi siyosiy partiyalar, tashkilotlar paydo bo'lmoqda. Ularning nomlari bora – bora umumiy lashib hammaga tanish bo'lib kelgandan so'ng uzun nomlardan ko'ra qisqartmalarga ko'proq ehtiyoj seziladi.

Masalan, «A-bomb» - «atom-bomb»

«N-bomb» – «nuclear-bomb»

Qisqartmalarning ko'pchiligi shu gazetaning o'zida kelgusi yoki o'tgan sonidagi maqolalarning shu mavzularida yoritiladi, ayrimlari esa davlatda sodir bo'layotgan voqea – hodisalardan xabardor bo'lishni talab etadi.

Bulardan tashqari, ommaviy axborot vositalarida oxirgi paytlarda «in» komponenti bilan yasalayotgan konkurs, musoboqa, turnir, konferensiya ma'nolarini anglatgan so'zlar paydo bo'lib bormoqda. Masalan: «Read-in» o'quvchilar musoboqasi, «Recite-in» deklamatorlar konkursi, «Swim-in» suzish musoboqasi, «Lobby» siyosiy savollar konferensiyasi.

Yana ayrim gazetalarda «in» komponenti bilan ishlatilib, lekin, tarjima qilinayotgan vaqtda unday mazmunni bermaydigan yangi so'zlar ham yo'q emas.

Masalan, «Morning Star» gazetasiga olingan «buy-in» neologizmi «foydakeltiruvchi xarid» ma'nosini beradi. «Tie-in» bozori chaqqon mollarni xarid qilishdagi vazifa, «Trade-in» - olingan tovarlar evaziga o'sha tovarni arzonlashtirilgan narxda qaytarish, «Break-in» - fuqarolar shaxsiy hayotiga suqulish, hujum (telefon suhbatlarini xufiyona eshitish)

Gazeta leksikasidagi otlar (yangi soʻzlar) ichida qoʻshma soʻzlarni ham aniq qilib urgʻu berib oʻtmasdan ilojimiz yoʻq. Ular sintaktik soʻz birikmalardan kelib chiqqan. «has-been», «know-how» Ulardan birinchisi siyosiy arbobning siyosatda oʻz nufuzini yoʻqotishi oqibatida yuzaga keladi.

(A political has-been) hozirgi vaqtda esa u isteʼmoldan chiqqan tovarlarni bildirish uchun qoʻllaniladi. Ikkinchisi esa, qobiliyat, tajriba, amaliyot va bilimni oʻzida mujassam etadi.

III bob bo'yicha xulosa

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, har bir so'z turkumining tarjimasida o'z o'rnini va vazifasi bor. Shunday qilib, ingliz tilidagi atoqli otlarni va joy nomlarini o'zbek tiliga tarjima qilishda ikki bosqichdan o'tiladi. O'zbek tilidagi vositalar orqali so'zning mazmunini berish, ya'ni muqobil variantini; muqobil variantlari mavjud bo'lmagan otlar transkripsiya, transliteratsiya, kalkalash tasviriy tarjima.

Otlarni tarjima qilishda qaysi bosqichdan foydalanish xususiga to'xtalsak, bu ko'pchilik sub'ekt faktorlarga bog'liq.

Masalan, tarjimonning shaxsiga, uning intellektiga, uning qobiliyati va tarjimasiga, abstrakt – mavhum tushunchalar bilan ishlashiga tarjima qilish jarayoniga va matn uslubiga ham bog'liq.

Atoqli otlar va jo'g'rofiy joy nomlar badiiy tarjimalarda ham an'anaviy tarjima usullari bo'lgan transliteratsiya va transkripsiya orqali amalga oshiriladi.

[26, B. 195] Masalan: Smith - Smit, Brown - Braun, John Fitzgerald Kennedy - Jon Fits-jerald Kennedi; Cleveland - Klivlend, Rhode Island — Rod-Aylend, Ontario — Ontario; Downing Street — Dauning-strit ko'chasi, Foley Square — Foli-skver.

Xuddi shu usul orqali atoqli otlar sanalmish joy nomlari va tashkilotlar tarjimasiga ham xosdir, masalan: Life-Layf», US News and World Report — «YUS nyus end uorld riport», General Motors Corporation - «Jeneral motors korporeyshn», Harriman and Brothers — «Garriman end Brazers», Anaconda Mining Company — «Anakonda mayning kompaniyasi».

Transkripsiya usuli kema, samolyot va harbiy anjom nomlari tarjimasida ham uchraydi: Queen Elisabeth — «Kyin Elizabet», Spitfire — «Spitfayr», Hawk — «Xok», Trident - «Traydent», Honest John - «Onest Djon».

Ba'zi joy nomlari ya'ni turdosh otlardan tashkil topgan bo'lsa so'zma-so'z ham tarjima qilinishi mumkin: the United States of America – Amerika Qo'shma SHtatlari, the United Kingdom — Birlashgan Qirollik, the Rocky Mountains — Harsang toshli tog'.

Agar ot tarkibi ham atoqli, ham turdosh otlardan tashkil topgan bo'lsa, tarjimaning an'anaviy usuli, hamda qo'shimcha tarjimadan ham iborat bo'ladi: the

Atlantic Ocean - Atlantik okeani, Kansas City— Kanzas-siti shahri, New Hampshire - Nyu-Xempshir grafligi, Firth of Clyde —Fert-of-Kpayd qo'ltig'i.

Siyosiy partiyalar, kasaba uyushmalari va shunga o'xshash tashkilotlar nomlari esa so'zma-so'z tarjima qilinadi: the Republican Party — respublikachilar partiyasi, the United Automobile Workers Union — Birlashgan avtomobil ishlab chiqarish ishchilar uyushmasi, the Federal Bureau of Investigation – Federal qidiruv byurosi.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida berilgan atoqli otlar va toponomik joy nomlari tarjimalarida bitiruv malakaviy ishi o'z oldiga shunday so'zlardan xabardor qilish, ularni tarjima qilish usullarini yaqqol ko'rsatishni maqsad qilib qo'ygan.

XULOSA

Biz yuqorida terminlarning boyish manbalarini ko'rib o'tdik. Terminlar sonining ortib borishi asosan chet tilidan so'z qabul qilish va tilning o'z ichki imkoniyatlari hisobiga sodir bo'ladi.

Terminlarning o'ziga xos xususiyatlari ham mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

1. Terminlar emotsional ekspressivlik belgisiga ega emas;
2. Termin doim bir ma'noli bo'ladi;
3. Terminga aylangan so'z sinonimiya va antonimiya qatoridan chiqib ketadi;
4. Termin, odatda, fan, texnika va sanoat ishlab chiqarishiga oid bo'ladi;
5. Termin, odatda, ot bo'ladi.

Terminlar qo'llanilish darajasi va kelib chiqish xususiyatlariga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

Umumiy terminlar. Bu guruhdagi terminlar *universal terminlar* nomi bilan ham yuritiladi. Bunda bir termin ko'plab tillarida mavjud bo'lib, biror narsa buyum, tushuncha yoki hodisani nomlash uchun ishlatiladi: ingl., frans. *coordination, subordination*, nem. *Koordination, Nebenordnung, Beordnung-Subordination, Unterordnung*, ital. *subordinazione, coordinazione* kabi.

Maxsus terminlarga bir yoki bir necha tillarga, hattoki bir necha tillar guruhida kuzatiladigan grammatik hodisalarni ifodalovchi terminlar kiritiladi. Masalan, *progressiv* termini ingliz tili grammatikasidagi davomli zamonlarni nomlash uchun xizmat qiladi.

Mualliflik terminlari esa ma'lum ijodkor yoki tadqiqotchi olimlar tomonidan yaratiladi va ular vaqt o'tishi bilan universal yoki maxsus terminlar ichiga singib ketadi. Mana shunday terminlarga Blumfeld tomonidan yaratilgan *tagmema* terminini misol tariqasida keltirishimiz mumkin.

O'tgan asrning ikkinchi o'n yilligidan boshlab to hozirgi kunimizga qadar o'zbek tilimiz chet tillaridan kirib kelgan o'zlashmalar va o'z imkoniyatlari asosida

yasalgan juda ko‘plab so‘zlar asosida jadal boyib bordi va mana shu jarayon hozir ham qizg‘in davom etib kelmoqda.

XX asrning ilk yillarida yangi so‘zlar asosan rus tilidan qabul qilingan bo‘lsa, shu asrning yarmidan boshlab ona tilimizga boshqa chet tillaridan ham so‘z qabul qilish jarayoni boshlandi. Bu jarayonning markazida asosan ingliz tili turadi.

O‘zbek tilida ingliz tilidan yangi so‘zlar kirib kelishi bosqichini va sabablarini quyidagicha baholash mumkin:

1. O‘zbekiston mustaqilligidan oldin kirib kelgan inglizcha so‘zlar: *sotsial, demokratiya* kabi. Chunki bu davrda ingliz tili jahon tili bo‘lib ulgurgan va bu tildan so‘z olish kuchaya boshlagan edi. O‘zbek tiliga esa inglizcha so‘zlar asosan rus tili orqali o‘zlashdi.

2. Mustaqillikdan so‘ng chet mamlakatlar turli aloqalar o‘rnatildi, axborot texnologiyalari, elektronika va ijtimoiy hayot tarzimiz keskin o‘zgardi. Bir so‘z bilan aytganda, O‘zbekiston jahon hamjamiyatiga qo‘shildi, shu sababli ingliz tilidan so‘z kirib kelishi ham kuchayib ketdi.

O‘zbek tili terminologiyasidagi asosiy kamchiliklar nimalardan iborat, degan savolning tug‘ilishi tabiiy. Quyida mana shu savolga javob berishga urinamiz.

Ma‘lumki, sinonimiya har bir tilning ko‘rki va husni. U nutqimizning nafisligini va xilma-xilligini ta‘minlaydi. Biroq har tilning shunday o‘ziga xos bir qatlami mavjudki, unda ayni mana shu holat inkor etiladi. Bu tilning terminologik sistemasidir. Shuning uchun ham terminologiyaga bag‘ishlangan ilmiy ishlarda terminologiyadagi sinonimiya eng birinchi va eng qusurli hodisa ekanligi alohida uqtiriladi. O‘zbek tilining ilmiy-texnik terminologiyasiga shu nuqtayi nazardan qaralar ekan, har qadamda sinonimiyaga yo‘l qo‘yilayotganligining guvohi bo‘lish mumkin. Pirovardida, muayyan bir tushunchaning ikki va undan ortik til birligi orkali ifodalanishi o‘qish-o‘qitish ishlarini qiyinlashtirmoqda, terminlar sistemasining ixcham va tejamdor bo‘lishiga putur etkazmoqda.

So‘zdan iborat terminlarning so‘zlar yoki birikmalar bilan sinonimiyasi ham muammoli holatda. Achinarlisi shundaki, bu xildagi sinonimiya ayni bir asar

yoxud lugʻatning oʻzida ham uchrab turadiki, bundan oʻsha uning muallifi u yoki bu tushunchani ifodalash uchun xohlagan sinonimlardan foydalanaverishing mumkin, aniqrogʻi, hohlasang unisini, hohlasang bunisini ishlataver, degan xulosa kelib chiqadi. Keyingi yillarda nashr etilgan terminologiya lugʻatlarda ana shunday holga tez-tez duch kelinmoqda.

Boshqa-boshqa manbalardan terib olingan misollarni bir joyga jamuljam qilsak quyidagi hol koʻzga tashlanadi. Masalan, ruscha *poluprovodnik* termin turli manbalarda shunchalik koʻp uchraydiki, ularning miqdori 10 taga borib qoladi: *yarimoʻtkaz//yarim oʻtkaz// chaloʻtkaz//chala oʻtkaz, nimoʻtkaz//nim oʻtkaz* va nihoyat, *poluprovodnik*.

Barcha tillar terminologiyasida boʻlganidek, oʻzbek tili terminologiyasida ham ilmiy-texnik tushunchalarni ifodalash uchun minglab birikmali terminlardan foydalanib kelinmoqda.

Terminologiya amaliyotida esa bunday terminlarning ham yigʻiq ham yoyiq formalari bemalol ishlatilmoqda. Masalan: *sovuqlayin payvandlash//sovuq holda payvandlash; nuqtalab payvandlash//nuqtaviy payvandlash* va boshqalar.

Koʻrinib turibdiki, bu oʻrinda birikmaning aniqlovchi komponenti goh yasovchi qoʻshimchalar bilan, goh ular ishtirokisiz qoʻllanmoqda.

Birikma terminlarning boshqa bir guruhi sohalovchi komponentlarining xilma-xil affikslar yordamida yasalishi bilan xarakterlanadiki, bu ham sinonimiyani keltirib chiqarmoqda. Masalan: *terish apparati//tergich apparat; keskich asbob//kesuvchi asbob; buriladigan qurilma//burilma qurilma* va boshqalar.

Avvalo, shuni aytish kerakki, rus va oʻzbek tillari oʻrtasida (XIX asrning II yarmidan boshlaboq) ruscha birikma terminlarnng oʻzak-negizi oʻzlashtirilishi lozim boʻlgan aniqlovchi qismini oʻzbek tilida qay tarzda ifodalash masalasi koʻndalang boʻlgan edi. Oʻsha paytda bu masala «joʻngina» hal qilib qoʻya qolingani edi: *elektricheskaya mashina—iliktricheski mashina*.

Bu tarzda termin yasash noto'g'ri edi, albatta. Ruscha birikma terminlarni o'zbek tilida ifodalashning xilma-xil shakllari hosil bo'la boshladiki, ular hozirda ham mavjud.

Bundan xilma xillik va chalkashliklar quyidagi ko'rinishda namoyon bo'lmoqda:

1) ruscha birikma terminlar sohalovchi komponentining o'zak-negizi o'zbek tili bazasida yuzaga kelgan yangi shakllar bilan ifodalana boshlandi, ya'ni *-ichesk-*, *-aln-*, *-arn-* (*-yarn-*), *-ionn-*, (*-sionn-*),

-ivn- kabi affikslar bilan yasalgan sifatlar o'zbek tilida *-iq -al*, *-ar*, (*-yar*), *-ion*, (*-sian*), *-iv* ko'rinishida shakllantiriladigan bo'ldi. Masalan: *texnik qarov*, *mexsoha ishlov*; *elementar bo'luvchi*, *molekulyar nazariya*; *inersion kuch*, va boshqalar;

2) birikma terminlarning sohalovchi qismi o'zbek tilida belgisiz qaratkich kelishigida ot bilan ifodalana boshlandi, aniqrog'i, II tip izofa asosidagi birikmalar tuzila boshlandi. Masalan: *texnika xavfsizligi*, *energetika sistemalari*, *matematika ifodalari* va boshqalar;

3) birikma terminning sohalovchi komponenti yuqoridagiday shakl bilan, sohalanmish komponenti esa egalik qo'shimchalarsiz ifodalanadigan, aniqrog'i, III tip izofa asosidagi birikma hosil qilina boshlandi. Masalan: *plastina qopqoq avtomat telefon*, *tormoz yo'l* va boshqalar;

4) birikma terminlarning sohalovchi komponenti *-iy* (*-viy*) so'z yasovchisi bilan yasaladigan bo'ldi. Masalan: *matematikaviy ifoda*, *kinematikaviy juft* va hokazo.

Achinarlisi shundaki, eng oxirgi, ya'ni 4-usul bilan birikma terminlar hosil qilish, ayniqsa, 70-yillarning ikkinchi yarmidan keyin «avj olib ketdi». Natijada o'zbek tili terminologiyasida *diplomaviy* va *kursovoy ishlar*, tipidagi yuzlab birikma terminlar yuzaga keldi. Xayriyatki, xozirgi terminologiyamiz uchun yot bo'lgan bunday hatti-harakatlarga o'z vaqtida deyarli barham berildi. To'g'ri, xozirgi kunlarda ham terminlar yaratishning bunday usulidan foydalanish inersiyasi mavjud. Birok jamoatchilik terminologiya masalalari bilan

shug‘ullanuvchi mutasaddi kishilar terminlarning me‘yoriy bo‘lishi uchun harakat qilishmoqda.

Terminshunos V. P. Danilenko terminlar imlosi xususida fikr yuritib shunday deydi: terminlar orfografiyasi standartlashtirilayogan terminlarni til nuqtai nazaridan shakllantirishning muhim bir jihatidir». Bu fikr o‘zbek tili terminlari imlosiga ham to‘la taalluqlidir. Shu nuqtai nazardan yondashar ekanmiz, o‘zbek tili terminologiyasida nihoyatda chalkashliklar mavjudligiga ishonch hosil qilish mumkin.

O‘zbek tilidagi ilmiy-texnik adabiyotlarda, maxsus terminologik lug‘atlarda allaqachon terminlar imlosini qat’iylashtirish vaqti etdi. Shunisi achinarliki, bu borada har qaysi nashriyot, gazeta yoki jurnal redaksiyasi o‘z hohishicha ish ko‘radi. Bugina emas, bir nashriyot yoxud bir redaksiyaning o‘zida chiqayotgan mahsulotlarda ham ana shunday turlichaliklar mavjud. Terminlar imlosi xususidagi chalkashliklar nimalardan iborat, degan savolning tug‘ilishi tabiiy. Quyida mana shu masalaga ham to‘xtab o‘tamiz.

Dalillar rus tilidan aynan o‘zlashtirilgan yoxud kalkalashtirilgan qo‘shma terminlar imlosida har xillik tez-tez uchrab turadigan hodisaga aylanib qolganligini tasdiqlaydi.

Misollarga murojaat etaylik. Rus tilida komponent *radio* leksemasidan iborat ko‘plab terminlar mavjud. Ular esa o‘zbekcha manbalarda xilma-xil, ya’ni goh qo‘shib, goh ajratib yozib kelinmoqda. Bu gap hap ikkala komponenti aynan o‘zlashtirilgan terminlarga ham, biror komponenti o‘zbekchalashtirilgan terminlarga ham taalluqlidir. Masalan, *radioapparatura*—*radioapparaturasi*—*radio apparaturasi* (4 xil variant—*pyc-V*), *radioto‘lqin*—*radio to‘lqin*—*radio to‘lqini*—*radioto‘lqini* (4 xil variant — *pyc-I*, *pyc-V*). Komponenti *kino*, *foto*, *elektr* kabi so‘z va morfemalardan iborat qo‘shma va qisqartma terminlar imlosida ham ayni shunday holni ko‘rish mumkin.

Hozirgi o‘zbek tili terminologik sistemalarida shunday qo‘shma leksik birliklar ishlatiladiki, ularni imlo qoidalarida ajratib yozish kerakligi alohida ta’kidlangan (masalan, *ishlab chiqarish* kabi). Shunisi qiziqki, bundan qo‘shma

leksemalarga soʻz yasovchi qoʻshimchalar qoʻshilgani holda yana ularni ajratib yozish hollari tez-tez uchrab turadi. Kiyoslang: *noishlab chiqarish sanoati*. Bu oʻrinda *ishlab chiqarish* qoʻshma soʻzidan *no-* prefiksi vositasida yasama soʻz yasalgan (*Ishlab chiqarshi va noishlab chiqarish sohasining hamma tarmoqlarida ishni nihoyasiga yetkazish zarur*). Yasama soʻzni ajratib yozish haqida esa gap ham boʻlishi mumkin emas.

Oʻzbek tili, jumladan, uning terminologiyasi rus tili hisobiga qoʻshma soʻz va terminlarning yangi bir turi bilan boyiganligi hammamizga maʼlum. Ikki mustaqil maʼnoli soʻzlarning qoʻshiluvidan hosil boʻlgan qoʻshma terminlar shular jumlasidandir. Har ikkala komponent orasiga defis(chiziqcha) qoʻyib yoziladigan bunday terminlarning imlosida ham oʻziga xos qator chalkashliklar mavjud. Masalan, quyidagi termin oʻzbek tilida toʻrt xil shaklda yozib kelinmoqda: *maktab-internat//maktab internat//internat-maktab//internat maktab*. Oʻzbek tilida qoʻllanayotgan bu tipdagi qoʻshma soʻzlarning imlosini (qatʼiylashtirish payti allaqachon yetdi. Umuman, bu gap qoʻshma terminlarning barcha tiplariga ham toʻla aloqadordir.

Keltirilgan misollar hozirgi oʻzbek tili terminologiyasida uchrab turayotgan chalkashliklarning baʼzilaridir, xolos. Shu oʻrinda Abdulla Qahhorning quyidagi soʻzlarini keltirmoqchimiz: «Bizning matbuot va radio tili nima uchun kundan-kun xalq tilidan uzoqlashib boryapti? Nima uchun tilimizning konun-qoidalarini buzilyapti? Nima uchun koʻcha harakati qoidasini buzgan kishiga militsiya xushtak chaladi-yu, butun bir tilni buzayotgan odamlarga hech kim hushtak chalmaydi?» [35, B. 43]

Chamasi, oʻzbek tilida terminlarni notoʻgʻri qoʻllayotgan, bu borada ona tili qonun-qoidalariga rioya qilmayotgan barcha kishilarni ham «hushtak chalib toʻxtatish» payti allaqachon kelib etdi.

Shunday qilib, ilmiy-texnik adabiyotlar (darsliklar, qoʻllanmalar, monografiyalar...)da qoʻllanayotgan, maxsus terminologik lugʻatlarda tavsiya etilgan va etilayotgan, til faktorlariga toʻla rioya qilinmay, tilimizning ichki va tashqi imkoniyatlarini hisobga olmay yaratilayotgan, binobarin, terminologik

talablarga to'la javob bera olmayotgan terminlarning mavjudligi o'zbek tilining barcha terminologik sistemalarida kuzatilayotgan jiddiy qusurlardandir. Buning ustiga, terminlar imlosidagi xilma-xilliklar ham terminologiya bobidagi barcha ishlarning orqaga sudralishiga sabab bo'lmoqda. Shuning uchun ham o'zbek tili terminologik sistemalarini tartibga solish va bir xillashtirish hozirgi hayotimizning, tilshunosligimizning dolzarb vazifalaridan biridir.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, har bir so'z tarjimasining o'z o'rni va vazifasi bor. Shunday qilib, ingliz tilidagi atamalar, atoqli otlarni va joy nomlarini o'zbek tiliga tarjima qilishda ikki bosqichdan o'tiladi.

O'zbek tilidagi vositalar orqali so'zning mazmunini berish, ya'ni muqobil variantini; muqobil variantlari mavjud bo'lmagan so'zlar transkripsiya, transliteratsiya, kalkalash, tasviriy tarjima.

Muqobilsiz leksik birliklarni tarjima qilishda qaysi bosqichdan foydalanish xususiga to'xtalsak, bu ko'pchilik subyekt faktorlarga bog'liq.

Masalan, tarjimonning shaxsiga, uning intellektiga, uning qobiliyati va tarjimasiga, abstrakt – mavhum tushunchalar bilan ishlashiga tarjima qilish jarayoniga va matn uslubiga ham bog'liq.

Atamalar, yangi so'zlar, atoqli otlar va jo'g'rofiy joy nomlari tarjimalarda ham an'anaviy tarjima usullari bo'lgan transliteratsiya va transkripsiya orqali amalga oshiriladi. Masalan: Smith - Smit, Brown - Braun, John Fitzgerald Kennedy - Jon Fits-jerald Kennedi; Cleveland - Klivlend, Rhode Island — Rod-Aylend, Ontario — Ontario; Downing Street — Dauning-strit ko'chasi, Foley Square — Foli-skver.

Xuddi shu usul orqali atoqli otlar sanalmish joy nomlari va tashkilotlar tarjimasiga ham xosdir, masalan: Life-Layf», US News and World Report — «YUS nyus end uorld riport», General Motors Corporation - «Jeneral motors korporeyshn», Harriman and Brothers — «Garriman end Brazers», Anaconda Mining Company — «Anakonda mayning kompaniyasi».

Transkripsiya usuli kema, samolyot va harbiy anjom nomlari tarjimasida ham uchraydi: Queen Elisabeth — «Kyin Elizabet», Spitfire — «Spitfayr», Hawk — «Xok», Trident - «Traydent», Honest John - «Onest Djon».

Ba'zi joy nomlari ya'ni turdosh otlardan tashkil topgan bo'lsa so'zma-so'z ham tarjima qilinishi mumkin: the United States of America – Amerika Qo'shma Shtatlari, the United Kingdom — Birlashgan Qirollik, the Rocky Mountains — Harsang toshli tog'.

Agar ot tarkibi ham atoqli, ham turdosh otlardan tashkil topgan bo'lsa, tarjimaning an'anaviy usuli, hamda qo'shimcha tarjimadan ham iborat bo'ladi: the Atlantic Ocean - Atlantik okeani, Kansas City— Kanzas-siti shahri, New Hampshire - Nyu-Xempshir grafligi, Firth of Clyde —Fert-of-Klayd qo'ltig'i.

Siyosiy partiyalar, kasaba uyushmalari va shunga o'xshash tashkilotlar nomlari esa so'zma-so'z tarjima qilinadi: the Republican Party — respublikachilar partiyasi, the United Automobile Workers Union — Birlashgan avtomobil ishlab chiqarish ishchilar uyushmasi, the Federal Bureau of Investigation – Federal qidiruv byurosi.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida berilgan atamalar, atoqli otlar va toponomik joy nomlari tarjimalarida bitiruv malakaviy ishi o'z oldiga shunday so'zlardan xabardor qilish, ularni tarjima qilish usullarini yaqqol ko'rsatishni maqsad qilib qo'ygan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I. A.. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. – Toshkent: «O'zbekiston», 1995. – 234 b
2. Karimov I.A. «Barkamol avlod orzusi», Toshket-2000, 91-bet
3. Ахманова О.С. Очерки по общей и русской лексикологии. – М.: Учпедгиз, 1957. – 295 с.
4. Ашукин Н.С., Ашукина М.Г. Крылатые слова. Литературные цитаты. Образные выражения. – М.: Художественная литература. –2004. – 824 с.
5. Бодуен де Куртене И. А. Избранные труды по общему языкознанию. Е.И. М., 1963. С. 324.
6. Вартаньян Э.А. Из жизни слов. – М.: Детгиз. 2002. – 240 с.
7. Виноградов В. В. Об основных типах фразеологических единиц в русском языке // Виноградов В. В. Избранные труды: Лексикология и лексикография. М., 2000. -340с
8. Даниленко В. П. Русская терминология. – Опыт лингвистического описания. М., 1977,с. 73-75
9. Котелова Н. З. Первый опыт лексикографического описания русских неологизмов // Новые слова и словари новых слов. Л., 1978. – 526 с.
10. Кунгуров. Р., Тихонов А. Обратный словарь узбекского языка. Самарканд, 2005. – 205 с.
11. Кутина Л. Л. Формирование языка русской науки.- М. –Л., 1999, с 194.
12. Лесных Е.В. Архаизация советизмов// Русистика. Лингводидактика. Липецк, 1999. – 474с.
13. Лесных Е.В. Процессы архаизации общественно-политической лексики в 20-30-е гг. XX в.// Исследования по русскому и общему языкознанию. - Липецк, 2000. – 280с.
14. Лесных Е.В. Процессы архаизации экономической лексики русского в 20-30-е гг. XX в, Исследования до русскому и общему

- языкознанию. -Липецк, 2000. – 388с.
15. Лесных Е.В. О Взаимодействии лингвистических и экстралингвистических факторов архаизации лексики, Русский язык. Лингвистические наблюдения. - Липецк, 2000. – 107с.
16. Лесных Е.В. К вопросу о классификации устаревшей лексики, Русский язык. Лингвистические наблюдения. - Липецк, 2000. - с. 220с.
17. Лесных Е.В. Отражение истории народа в слове// Материалы по славянской письменности и культуре. Выпуск XIX. - Липецк, 2001. - 273с.
19. Лукьянова Н. А. Экспрессивная лексика разговорного употребления. Новосибирск, 2006. – 344с.
20. Левцкая Т.Р. Фитерман А.М. «Теория и практика перевода с английского языка на русский» М. 1963. с. 123
21. Мўминов О. “A Guide to simultaneous Translation” Тошкент–2005 й. 134 б.
22. Малявин Д.В. Латушкина М.С. «Работа с газетой на английском языке в средней школе» М. «Просвещение» 1988. С. 186
23. Реформатский А. А. Что такое термин и терминология. М., 2000. с. 109.
24. Розенталь Д. Э., Теленкова М. А. Словарь-справочник лингвистических терминов. Пособие для учителей. 2-е изд. М., 1976
25. Саломов Ғ. Таржима назарияси асослари Тошкент –«Ўқитувчи» – 1983. 235 б.
26. Саломов Ғ. «Таржима назарияси»га «Ўқитувчи» кириш нашриёти Тошкент-1978 й. 286 б.
27. Саидносирова З. Н., Деркунская Т. В. Химиядан русча-ўзбекча изоҳли луғат. Тошкент, 2000. - 195 с.
29. Смирницкий А. И. Лексикология английского языка. М., 1956. 204 с.

30. Фомин. М.И. «Современный русский язык. Лексикология»,
М.:Высшая школа,1998. – 321с.
31. Щерба Л. В. Опыт общей теории лексикографии // Щерба Л. В.
Языковая система и речевая деятельность. Л., 1974. – 144с.
32. Arnold I. V. The English Word, Moscow, 1986, -475 p.
33. Ўзбек тили ва адабиёти журнали. Тошкент, 1995, 4-сон, 34-38 бетлар.
34. Ўзбек тили ва адабиёти журнали. Тошкент, 2003, 3-сон, 20-24 бетлар.
35. Ўзбек тили ва адабиёти журнали. Тошкент, 2005, 3-сон, 42-47 бетлар.
36. И. Бункин, О. В. Буренкова, Т. И. Горбунова и др. –Под ред. О. С.
Ахмановой, А. М. Уилсон. – М.: Русский язык, 1988. – 1055с.
37. Англо-русский словарь: 20000 слов. – 27-е изд., стереотип. /
Сост.: Бункин Г. И., Буренкова О. В., Горбунова Т. П. и др.; Под ред.
Ахмановой О. С., Уилсон Е. А. М. – М., Рус. яз., 2000._– 639 с.
38. Англо-русский словарь. - Составил В. К. Мюллер – Изд. 9. – М.:
ГИИНС, 1962. – 1192с. [Англ Рус С - 1962]
39. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М: СЭ, 1969. - 608
с.
40. Кунин А. В. Англо-русский фразеологический словарь. -Изд. 4-е,
переработанное и дополненное. -М.: Русский язык, 1984. – 942 с.
41. Мюллер В. К. Англо-русский словарь. 53000 слов. Издание 22-е,
стереотипное. –М.: Русский язык, 2006. -848 с.
44. Crystal. D. The Cambridge Encyclopedia of Language, Cambridge, 2006, p.
10-14.
45. Evans B., Evans C. A Dictionary of Contemporary American Usage. – New
York: Random House, 1997.- 840 p.
46. Meillet A. Linguistique historique et linguistique ge'ne'rale. Т. 2. Paris,
1938
47. Fowler H.W. A Dictionary of Modern English Usage. - Oxford: Oxford
University Press, 2001. – 660 p.
48. Franklyn J.A Dictionary of Rhyming Slang. - London: Longman, 1999. –
688.

49. Hotten J. A Dictionary of Modern Slang, Cant and Vilgar Words. - New York: Pokent Books, 2008.- 784 p.

ELEKTRON MANBALAR:

1. <http://www.vedu.ru/bigencdic/73055/>
2. <http://ru.scribd.com/doc/97199603/95074003-J-C-Catford-A-Linguistic-Theory-ofTranslation-Oxford-Univ-Press-1965>
3. <http://blacktwhite.com/ru/articles2.php>

Ilova-1

spaghetti- tez tayyor bo`ladigan ingichka uzun makaron

priest –cherkov xodimi ya`ni ruhoniy,

cross- xristian diniga mansub shaxslar sig`inadigan xoch

tunic –harbiylar kiyadigan yengsiz ktel

Abruzzi- Italiya hududida joylashgan manzilgoh

Capracotta- Italiya hududida joylashgan manzilgoh

blankets- jun adyol.

Ciaou- italyancha salom

Lire- Italiya pul birligi

Strega- spirtli ichimlik turi

Grappa- italyancha uzumdan tayyorlangan spirtli ichimlik nomi

Villa- shahar tashqarisida joylashgan hashamatli uy

Somme - Fransiyadagi daryo nomi

Bench- yog`och yoki toshdan yasalgan o`rindiq

V.A.D –tibbiy yordam guruhi

collar mark- kiyim yoqasidagi maxsus tugma

uniform – harbiy forma

fezes- maxsus bosh kiyim

Bersaglieri - italyancha “yo`l ko`rsatuvchi”

oven- g`isht pishiradigan pech, o`choq

rum- spirtli ichimlik turi

lighter –zajigalka

Fiat - Italiyada ishlab chiqariadigan avtomobil markasi

searchlights- projector

cognac- Fransuz spirtli ichimligi

pasta asciutta –pishloq va saus bilan tayyorlangan Italiya makaronli taomi.

canteen- harbiylar uchun maxsus suv solb yuradigan idish

Portaferiti - tibbiyot xodimi (italyacha)

corkscrew -shisha ochadigan buyum

The Lancet - Londonda nashr qilinadigan tibbiyot jurnalini

The News of the World- gazeta nomi

pyjamas jacket – yengsiz kiyim turi

Cinzano, chianti- spirtli ichimlik turi

egg nog -ko`proq amerikaliklar ichadigan tuxum aralashgan spirtli ichimlik nomi

Sherry-Ispan vinosi nomi

Vermouth- Fransiya va Italiyada tayyorlanadigan xushbuy vino nomi

hamburger steak- taom turi

Agoat -ho`kiz (Italyan tilida)

Biffi`s*** va ***Grand` Italia - umumiy ovqatlanish joylari nomi

dry white Capri, fresa, barbera, sweet white wine-spirtli ichimlik turlari

sandwich-orasiga go`sht va pishloq solingan non bo`lgi

“Grand-otel” - mehmonxona nomi

dolce- shirinlik (italyancha)

letto matrimonial - italyanchada ikki kishilik divan nomi

salted mindal-sho`r bodom(italyancha)

martini-spirtli ichimlik turi

the billiard –room-blyardxona

francs- Fransuz pul birligi

luge -italyan tilida *kichikro shveytsar chanalarini*

brioche – bulochka (fransuz tilida)

choucroute -sosiska va karamli fransuz taomi

Sauerkraut -qaynoqqina karamga sosiska botirilgan taom.